резервланган каналлар кўриб чиқилган. Ушбу ҳолатда нутқли чақирувлар учун рад этишлар жадаллиги узатиладиган маълумотлар пакетлари учун хизмат кўрсатишнинг устувор узилишлари усулидан фойдаланилганлиги сабабли камаяди. Мисол учун, абонентлардан нутқли чақирувни узатиш учун талаб келиб тушса, тизим маълумотлар пакетларини узатишни тўхтатади ва ушбу канални нутқли чақирувни узатиш учун ажратади. Бундан ташқари [1] да шу нарса кўрсатиладиган буфернинг ҳажми тизимнинг сифат кўрсаткичларига таъсир этади. Иккала таклиф этилган усулларда реал алоқа тизимлари учун қўлланишни чеклайдиган қатор камчиликлар бор. Шундан келиб чиққан ҳолда, келтириб ўтилган камчиликларга эга бўлмаган ва реал мавжуд бўлган алоқа тизимларини катта аниқлик билан тавсифлаш имконига эга бўладиган янги усулларни яратиш зарурияти юзага келди.

Буфердан фойдаланган ҳолда нутқли хабарлар ва маълумотлар пакетларини биргаликда узатиш сифатининг характеристикаларини баҳолаш учун декомпозиция усули таклиф этилади. Ушбу усулнинг моҳияти шундан иборатки тадқиқ қилинаётган моделнинг ишлаш сифати характеристикаларининг ҳисобини дастлабки тизимга нисбатан анча содда тузилган ва аналитик кўринишдаги ечимга олиб келадиган алоҳида модулларнинг тегишли характеристикаларини баҳолашга келтиришдан иборатдир. Дастлабки моделга ва модулга фойдали юклама оқимларининг келиб тушиши ва уларга хизмат кўрсатиш жараёнларининг ўхшаш бўлиши модулнинг кириш параметрларини танлаш ҳисобига эришилади. Тадқиқ қилинаётган нутқли хабарлар ва пакетларни биргаликда узатиш модели учун декомпозиция усулини қўллаш хизмат кўрсатилаётган ҳар бир оқим учун характеристикаларини алоҳида ҳисоблашдан иборатдир. Нутқли хабарлар маълумотлар пакетлари узатилишини узиш имконини берадиган мутлақ устуворликка эга, шунинг учун нутқли юклама оқими характеристикаларини баҳолаш йўқотишлар билан оммавий хизмат кўрсатиш тизимининг стандарт моделлари доирасида амалга оширилади. Ушбу ҳолатда нутқли хабарни узатиш

давомийлигини тақсимлаш функцияси ихтиёрий бўлиши мумкинлигини белгилаб ўтамиз. Йўқолган нутқли хабарлар улушининг қиймати битта хабарни узатишнинг ўртача давомийлигини унинг келиб тушиш жадаллигига кўпайтмаси билан аниқланади. Маълумотлар пакетларини узатиш сифатининг характеристикаларини алоҳида баҳолаш йўлини кўриб чиқамиз. Нутқли хабарлар ва пакетларни узатиш давомийлиги ўртача бир хил ва бир хил кўринишдаги тақсимлаш функциясига эга бўлсин. Нутқли хабарлар оқими характеристикаларини мустақил ҳисоблаб чиқиш имконига эга бўлган ҳолда, каналли ресурс катталигини шундай танлаш мумкинки, у нутқли хабар йўқолишининг берилган даражасини таъминлаши керак бўлади. Кейинги тузилишларда нутқли хабарлар йўқолишининг эришилган кичик даражасидан, шунингдек пакетлар ва нутқли хабарларни узатиш вазиятлари бир хил содир бўлиш шароитидан фойдаланамиз. Ушбу шароитларда етказилган пакетлар улушининг тизимда бўлишининг ўртача вақтини баҳолаш учун иккала мавжуд бўлган юклама оқимини бирлаштириш ва уларни узатишни кутиш модели доирасида кўриб чиқиш таклиф этилади. Бирлаштирилган оқимнинг ҳар бир чақируви, аввал нутқли хабар ёки маълумотлар пакети бўлишидан қатъий назар, хизмат кўрсатишда рад этилгандан кейин кутишга қўйилади, агарда бўш жой бўлса, ёки қайта тикланмасдан йўқолади. Пакетни етказиш эҳтимолини ва тизимда пакетларнинг маълум вақтга бўлишининг ўртача вақтини баҳолашда ҳисоблаш алгоритмининг тадқиқ қилиш нутқ хабарлари ва пакетларга хизмат кўрсатиш вақтини тақсимлаш хусусияти билан аниқланади ва биргаликда узатишнинг муайян моделларини кўриб чиқишда тадқиқ қилинади.

Аввалом бор нутқ узатиш жараёнини кўриб чиқамиз. Нутқли хабарларни узатиш жараёнининг маълумотлар пакетининг келиб тушиши ва уларга хизмат кўрсатиш жараёнига боғлиқ бўлмаганлиги сабабли тизим характеристикаларини баҳолаш хизмат кўрсатиш мумкин бўлмаган чақирувларнинг йўқолишлари билан бўлган телетрафика назариясининг стандарт модели доирасида амалга оширилади. Ушбу ҳолатда нутқли

чақирувларнинг фақат бир турдаги йўқотишлари мавжуд, яъни янги келиб тушадиган талаблар учун каналли ресурсларнинг етишмаслиги натижасида юзага келадиган йўқотишлар мавжуд. Узатиш учун бўш каналларнинг бўлмаганлиги туфайли йўқолган нутқли юклама хабарларининг улуши Эрланг формуласи билан аниқланади:

$$P_{rad,v} = \frac{\left(\frac{\rho_v^{N_c}}{N_c!} \right)}{\sum_{k=0}^{N_c} \left(\frac{\rho_v^k}{k!} \right)}$$

(1)

бу ерда N_c – тизимдаги каналларнинг умумий миқдори. Овозли чақирувлар ва маълумотлар пакетлари Пуассон қонуни бўйича тақсимланган ва тизимга λ_v ва λ_d мос равишда жаддаллик билан келиб тушади. Талабларга хизмат кўрсатишнинг ўртача вақти $1/m_v$ ва $1/m_d$ бўлади. Нутқли юклама $\rho_v = \lambda_v/m_v$, Эрлангда ифодаланган. Нутқли хабарларни узатиш билан банд бўлган тизим каналларининг ўртача сони,

$$L_{ort} = \rho_v (1 - P_{rad,v})$$

(2)

Энди эса маълумотларни узатиш жараёнини кўриб чиқамиз. Маълумотлар пакетларини узатишни кўриб чиқамиз. Ушбу усул шунга асосланганки, нутқли хабарни узатиш жараёнида каналлар сони шундай танланганки, унда йўқолган нутқли хабарлар улуши жуда кичик бўлсин. Нутқли хабарларнинг келиб тушадиган оқимларини ва маълумотлар пакетларини битта дастлабки моделга бирлаштирган ҳолда ёрдамчи моделни қурамиз. Ёрдамчи модел учун ҳисоблаб чиқилган йўқолган пакетлар улуши ва пакетларнинг тизимда бўлишининг ўртача вақти дастлабки моделнинг тегишли характеристикалари учун юқори баҳо чегараси ҳисобланади. Дастлабки моделда нутқли хабар йўқолган бўлиб ҳисобланган пакет ёрдамчи моделда кутиш учун навбатга туради ва айрим кечикиш билан узатилиши мумкин. Шундай қилиб, ёрдамчи моделда дастлабки

моделга нисбатан, тегишли баҳоларнинг юқори характерини таъминлаган ҳолда, катта бўлган юклама ҳажми узатилади. Йўқолган пакетлар улушининг топилган баҳоси нутқли хабарлар йўқолишининг кичик катталигини ҳисоблашларнинг биринчи босқичида эришиладиган ҳақиқий қийматга яқин бўлади.

Маълумотлар пакетларининг характеристикаларини баҳолаш учун фойдаланиладиган моделнинг ишлаш схемаси қуйидагича бўлади. Бизда N_c алоқа тизими маълум бўлиб унга $\lambda_v + \lambda_d$ жадаллик билан маълумотлар пакетининг Пуассон оқими келиб тушади. Пакетни узатиш вақти бир хил узунликда бўлиб $1/m_v$ га тенг бўлади. Йиғинди юкломани $\rho_d = (\lambda_v + \lambda_d)/m_v$ деб белгилаймиз. Тизимда B ўлчамли буфердан фойдаланилади. Агар барча мавжуд бўлган узатувчи линия сифими банд бўлса, унда пакет кутиш жойининг биттасини банд қилади.

НАТИЖАЛАР

Дастлабки модел учун киритилган ахборот оқимларини биргаликда узатиш сифатининг характеристикаларини баҳолаш учун $P(j)$ эҳтимоллик қиймати орқали аниқланадиган ёрдамчи моделнинг тегишли кўрсаткичларининг қийматидан фойдаланамиз.

Агар $P(j)$ – стационар ҳолатда моделда узатиш ёки кутишда бўлган j маълумотлар пакетларига эга бўлган эҳтимоллик ҳисобланса, у ҳолда:

$$P(j) = \begin{cases} P(0) \frac{\rho_d^j}{j!}, & 1 \leq j \leq N_c; \\ P(0) \frac{\rho_d^j}{N_c! N_c^{j-N_c}}, & N_c \leq j \leq N_c + B; \end{cases}$$

(3)

$$P(0) = \left[\sum_{j=1}^{N_c-1} \frac{\rho_d^j}{j!} + \frac{\rho^{N_c}}{N_c!} \sum_{N=1}^B \left(\frac{\rho}{N_c} \right)^s \right]^{-1}$$

(4)

Барча каналли ресурслар банд бўлганлиги сабабли, йўқолган маълумотлар пакетининг улуши $P_{rad,d}$ билан баҳоланади. У Пуассон типдаги пакетлар бўлганлиги учун N_c+B пакетларга хизмат кўрсатилиши ва кутилиши учун бўлган ҳолатда соддалаштирилган моделни бўлиш вақтининг улуши каби аниқланади

$$P_{rad,d} = P(N_c + B)$$

(5)

Устувор нутқли хабар билан келиб тушган линия бўйича маълумотлар пакетларини узатиш узилганлиги ва $P_{rad,uzish}$ кутиш жойига эга бўлган барча B банд бўлганлиги сабабли йўқолган маълумотлар пакетларининг улуши соддалашган моделда тегишли ҳодисалар жадалликка нисбатан баҳоланади

$$P_{rad,uzish} = \frac{\lambda_v P(N_c + B)}{\lambda_d}$$

(6)

$P_{rad,umum}$ маълумотларнинг йўқолган пакетларининг умумий улушининг қиймати юқорида келтирилган сабаблар бўйича йўқолган пакетлар улушининг суммаси каби баҳоланади

$$P_{rad,umum} = P_{rad,d} + P_{rad,uzish}$$

(7)

Муваффақиятли етказилган P_{muvf} маълумотлар пакетларининг улуши $P_{rad,umum}$ га қўшимча катталиқ каби баҳоланади.

$$P_{muvf} = 1 - P_{rad,umum} \quad (8)$$

Маълумотлар пакетларини узатиш учун банд бўлган M_d каналларнинг ўртача сони, шунингдек маълумотлар пакетлари билан банд бўлган $M_{d\omega}$ кутиш жойининг ўртача сони тегишли ўртача қиймати каби аниқланади:

$$M_d = \sum_{j=1}^N P(j)j + N_c \sum_{j=N_c+1}^{N_c+B} P(j) - L_{o'rt}$$


(9)

$$M_{d\omega} = \sum_{j=N_c+1}^{N_c+B} P(j)(j - N_c)$$

Пакетларнинг кутиш ва узатишда бўлишининг ўртача вақти T_d Литтл формуласи бўйича топилади [3]:


$$T_d = \frac{M_d + M_{d\omega}}{\lambda_d}$$

(10)



1-расм. Рад этиш эҳтимолининг пакетлар юкламасига боғлиқлиги

Тизимда $N_c=30$, $M=2$ аб. кўзда тутилган.



2-расм. Рад этиш эҳтимолининг каналлар сонига боғлиқлиги

МУҲОКАМА

Абонент кириш тармоқларини лойиҳалаштиришда таклиф этилган усуллардан фойдаланиш мумкинлигини аниқлаш учун имитацион моделлаштириш дастури ишлаб чиқилган. Ушбу ҳолатда имитацион моделлаштириш аналитик моделлар ёрдамида олинган натижаларнинг юзага келадиган хатоликларини баҳолаш учун қўлланилади. Имитацион моделлар учун характеристикалар қийматини тегишли ҳодисаларни ҳисоблагичларни ҳисоблаб чиқиш йўли билан топиш мумкин. Ҳисоблашларни амалга оширишда ρ_v , ρ_d , N_c кириш параметрларининг қиймати ва M абонентлар сони танланади. Кейин имитацион ва ҳисоблаш модели характеристикаларининг айрим диапазонда асосий параметрларидан бири ўзгаришига боғлиқлиги таҳлил қилинади.

$P_{rad,umum}$ рад этиш эҳтимолининг $\rho_v=0,1$ Эрл/абон., $\rho_d=4$ кбит/с/абон., $M=2$ аб. қайд этилган кириш параметрларида «нутқ-маълумотлар» узатишнинг биргаликдаги режимида N_c каналлар сонига боғлиқлигини кўрамыз. 1-расмда математик моделнинг (1 назария) келтирилган формулалари бўйича ҳисоблаб чиқилган эҳтимоллиқнинг тақсимланиши ва имитацион моделлаштириш дастури ёрдамида олинган натижалар асосида боғлиқлик(1 эксперимент) келтирилган.

Кейин $P_{\text{rad,umum}}$ кутиш учун жойларнинг турли қийматларида ($B=0$ (назария ва 1 эксперимент), $B=20$ (назария ва 2 эксперимент)) узатишнинг бирлаштирилган режимда ρ_d келиб тушадиган пакетларнинг йиғинди юкламасига боғлиқлиги таклиф этилади.

ХУЛОСА

Олинган натижалар абонент кириш тармоқларининг сифат кўрсаткичларини ҳисоблаш учун тақдим этилган усулни қўллаш имконияти мавжудлигини кўрсатади. Ҳисоблашнинг ушбу алгоритмидан фойдаланганлиги сабабли етарлича аниқлик билан пакетли трафикка хизмат кўрсатиш учун зарур бўлган каналлар миқдорини аниқлаш имконияти пайдо бўлди. Аввал телекоммуникация операторларига ускунани эксплуатация қилиш тажрибаси ва тахминий юкламалардан келиб чиққан ҳолда, тармоқда ўта юкланишларга йўл қўймаслик учун аҳамиятли захира билан каналли ресурсларни ажратишга тўғри келарди. Ушбу усулдан фойдаланиш натижасида абонент кириш тармоғининг ўтказувчанлик имкониятида эришилган ютуқ ҳисоблашнинг ушбу усулидан фойдалана олиш кириш тармоғининг каналли ресурсларидан самарали фойдаланиш имконини беришини тасдиқлаши мумкин. Шу билан бирга кириш тармоғи учун ускунани сотиб олиш ва эксплуатация қилиш учун сарфланадиган харажатларни қисқартиради.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Никитин Г.И. Применение функций Уолша в сотовых системах связи с кодовым разделением каналов. – Санкт-Петербург: СПбГУАП, 2003. – 86 с.
2. Бабков В.Ю., Вознюк М.А., Никитин А.Н., Сиверс М.А. Системы связи с кодовым разделением каналов. – С.-Пб.: С.-Пб ГУТ, 1999. – 120 с.
3. Смирнов Н.И., Сивов В.А. Кодовое разделение каналов (CDMA) - генеральное направление развития систем связи XXI века // Мобильные системы. - 2001. - N

**MAKTAB LABORATORIYALARIDA HAYDASH USULI YORDAMIDA
AZEATROP BO‘LMAGAN ARALASHMALARNI AJRATISH.
HAYDASH ASBOB –USUKUNALARI BILAN ISHLASHDA
O‘ZIGA XOS IMKONIYATLARDAN FOYDALANISH**

Xoliqulov Hamro Jasur o‘g‘li^{1,2}

hamroxoliqulov5@gmail.com

Pardayev Ulug‘bek Xayrullo o‘g‘li¹

Pardayevulugbek125@gmail.com

Ilmiy rahbar

Tilyabov Maxsudjon Umurzokovich¹

tilyabov_maq@mail.ru

Tashkilot: 1 – O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

2- Samarqand viloyati Pastdarg‘om tumani 84-maktab

***Annotatsiya:** O‘qitishda o‘ziga xos metodik tushunchalar, o‘quvchilarga amaliy dars mashg‘ulotlarini sodda va xavfsiz qilib o‘rgatish, asbob -uskunalarni yig‘ish va undan to‘g‘ri foydalanish. Rivojlangan mamlakatlar darsliklarida o‘quvchilarni haydash usuli bilan tanishtirish. Haydash asbob-uskunalar bo‘lmagan holda ham jarayonni amalga oshirish, maktab laboratoriyalarida haydash usuli uchun suv bo‘lmagan holda sovuq suv aylanmasini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha tavsiya va takliflar. Umumiy o‘rta ta‘lim maktab darslarida haydash usulini takomillashtirgan holda STEAM ta‘limini joriy etish.*

***Kalit so‘zlar:** azeatrop aralashmalar, Vyurs kolbasi, alanj, Libix sovutgichi, kondensatsiya, qaynash nuqtalari, etanol, propanol, toluol, ksilol, kondensator, termometr, kauchuk quvurlar, gaz gorelkasi.*

Kirish

Maktab laboratoriyalarida aralashmalarni xavfsiz va samarali ajrata olish muhimdir. Ajratish usullaridan biri haydash usuli bo'lib, u ko'proq uchuvchan birikmani bug'lash uchun suyuqliklar aralashmasini qizdirib, keyin uni yana suyuqlikka kondensatsiya qilishni o'z ichiga oladi. Bu usul turli xil birikmalarni, shu jumladan, qaynash nuqtalari o'xshashlarni ajratish uchun ishlatilishi mumkin. Demak ishning borishida qaynash temperaturasi bir – biriga yaqin bo'lgan azeotrop bo'lmagan aralashmalar (etanol, propanol, ksilol, toluol) kerak bo'ladi. Azeotrop bo'lgan aralashmalar haydash usulida ajratish mexanizmini qiyinlashtiradi.

Kerakli jihoz va reaktivlar. Ajratiladigan suyuqliklar aralashmasi etanol, propanol, toluol, ksilol, Vyurs kolbasi, Libix sovutgichi, alanj, termometr, qabul qiluvchi kolba, kauchuk tiqin, rezina quvur(shlang), isitish manbai (masalan: gaz gorelkasi, spirt lampasi yoki quruq yonilg'i urotropin), asbest to'r, chinni bo'lakchalari.

Ishning borish tartibi.

Haydash moslamasini ishlab chiqaruvchining ko'rsatmalariga muvofiq sozlanadi. Gaz gorelkasining ustiga shtativ, asbest to'r, Vyurs kolbasi ketma-ketligida mahkamlanadi, Vyurs kolbasini rezina quvur(shlang)lar yordamida Libix sovutgichga, termometrni esa kolbaga ulang. Azeotrop bo'lmagan aralashmalar: etanol, propanol, toluol, ksilolni va chinni bo'lakchalarni Vyurs kolbaga soling. Isitish manbai yordamida kolbani isitishni boshlang. Harorat asta-sekin o'sib borishi kerak, bu esa ko'proq uchuvchi birikmaning bug'lanishiga va kondensatorning ko'tarilishiga olib keladi. Bug' kondensator bo'ylab harakatlanar ekan, u soviydi va yana suyuqlikka aylanadi. Keyin bu suyuqlik qabul qiluvchi kolbaga tomiziladi. Ko'proq uchuvchi birikmaning hammasi ajratilib, qabul qiluvchi kolbaga yig'ilguncha kolbani isitishni davom ettiring. Bunda aralashmadagi turli xil moddalarning qaynash haroratiga e'tibor beriladi va temperaturani nazoratda ushlab kerak.

Chet el mamlakat maktab darsliklarida haydash usuli

Ozarbayjon maktablarida haydash (distillash) usuli. Haydash (distillash) -



1 – rasm. Haydash qurilmasi.

bu usul turli xil qaynash haroratiga ega bo‘lgan suyuqliklar aralashmasini ajratish uchun qo‘llaniladi (1-rasm). Haydash usuli aralashmadagi suyuqliklarning qaynash haroratlaridagi farqga asoslanadi. Masalan, bu usul suv va etil spirtning aralashmasini ajratish uchun ishlatilishi mumkin. Chunki bu moddalarning qaynash harorati past va turlicha. Bunday holda, birinchi navbatda, juda past qaynash nuqtasiga ega bo‘lgan etil spirti bug‘lanadi. Etil spirti ko‘proq uchuvchan suyuqlikdir va 78 °C da qaynaydi. Sovutgichda esa suyuqlangan spirt bug‘lari konteynerga yig‘iladi.^[1]

Efopiya maktablarida haydash (distillash) usuli. Haydash (distillash) usuli - suyuq aralashmaning tarkibiy qismlarini yoki eruvchan qattiq moddalarni eritmadagi suyuqlikdan ajratish usuli. U bug‘lanish (qaynatish) va kondensatsiya jarayonlaridan iborat.

Haydash jarayonida aralashmani ajratish komponentlarning qaynash



2 – rasm. Aralashmalarni ajratishning haydash (Haydash usuli) jarayoni.

nuqtalaridagi farqga asoslanadi. Haydash usuli paytida aralashmani haydash usuli kolbasida qizdirganda, qaynash harorati past bo‘lgan suyuqlik birinchi navbatda bug‘lanadi. Bu bug‘ kondensator deb ataladigan sovutish trubkasi orqali o‘tkaziladi va u yerda 2-rasmda ko‘rsatilgandek suyuqlikka aylanadi.

Keyin suyuqlik qabul qiluvchiga yig‘iladi.

Masalan, dengiz suvidan toza suv olish uchun oddiy haydash usulidan foydalanish mumkin. Dengiz suvi namunasi haydash usuli idishida qizdirilganda, suv bug‘lanadi va tuzdan ancha past haroratda qaynab ketadi. Bug‘ toza suyuq suvga kondensatsiyalanadi va qabul qiluvchiga yig‘iladi. Tuz, haydash usuli orqali idishda qoldiq sifatida qoladi.

Ikki aralash suyuqlik aralashmasini oddiy haydash usuli orqali ham ajratish mumkin. Bir-biri bilan aralashib eritma hosil qiladigan suyuqliklar gomogen aralashmadir. Alkogol va suv, benzol va moy aralashmasi aralashadigan suyuqliklarga misoldir.

Aralashmalarni ajratish ikki yoki undan ortiq texnikani birlashtirishni talab qilishi mumkin. Masalan, oddiy tuz va qum aralashmasini eritish, filtrlash va bug‘lanish jarayonidan foydalanib ajratish mumkin. Ajratishning birinchi bosqichi aralashmaga suv qo‘shishdir. Tuz suvda eriydi va eritma hosil qiladi, lekin qum emas. Keyin filtrlash yordamida qumni tuz eritmasidan ajratish mumkin. Nihoyat, filtratning bug‘lanishi suvning chiqib ketishiga olib keladi va tuzni ortda qoldiradi.

Spirтли ichimliklar va suv aralashmasini ko‘rib chiqing. Uchuvchan spirt bo‘lgan etanol 78 °C da, suv esa 100 °C da qaynatiladi. Aralashma qizdirilganda, qaynash nuqtasi past bo‘lgan spirt suvga qaraganda tezroq bug‘lanadi. Suv bug‘i kondensatordan o‘tadi va keyin qabul qiluvchiga yig‘iladi.^[2]

Maktablarda haydash usulini o‘rgatishning ahamiyati

Haydash usulini o‘rgatish talabalarda fan va texnologiyaga qiziqishni kuchaytirishi mumkin. Fanning real hayotda qo‘llanilishini ko‘rsatish orqali talabalar fandan amaliy muammolarni hal qilish va odamlar hayotini yaxshilash uchun qanday foydalanish mumkinligini ko‘rishlari mumkin.^[3] Bu ularni fan, texnologiya, muhandislik va matematika (STEAM) sohalarida martaba izlashga ilhomlantirishi mumkin. Va nihoyat, haydash usulini o‘rgatish talabalarga tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.^[4] Haydash usuli ehtiyotkorlik bilan rejalashtirish va bajarishni talab qiladigan bir qator qadamlarni o‘z ichiga oladi va talabalar jarayonni muvaffaqiyatli bajarish uchun asosiy tamoyillar va tushunchalarni tushunishlari kerak. Bu ularga ta’limning boshqa sohalarida va kelajakdagi martabalarida qo‘llashi mumkin bo‘lgan tahliliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.^[5]


Aralashmalarni ajratishda haydash usuli bo‘yicha asbob - uskunalar bo‘lmagan holda uni oddiy tarzda yasash. Avval polietilenli idishning tag qismi

va ustki qismini teng o'rtasidan flomastir bilan belgilab, rezina quvurlarga moslashtirib teshib olindi. So'ngra undan 40 sm li rezina quvurni o'tkazib, yelim bilan mahkamlandi (yelim sifatligiga e'tibor bering). Kondensator asbobini hosil qilishda polietilenli idishda suv aylanish mexanizimini hosil qiliniladi. Polietilenli idishning qarama – qarshi yon qismi teshib olindi (birini pastroq, ikkinchisini esa yuqoriroq holda). 50 sm bo'lgan rezina quvurni teshiklardan o'tkazib, yelim yordamida birini kirish, ikkinchisini chiqish qismi etib, mahkamlandi.

Endi suv aylanmasini yo'lga qo'yishda kattaroq hajmga ega polietilenli idish tanlandi. Uning ham yuqoriroq va pastki qismlari teshib, jumraklar o'rnatib olindi. Biri chiquvchi, ikkinchisi kiruvchi qism bo'ldi. Suv ilib qolishligi sabab, suvni chiqarib almashtirish uchun yana bir quyiroq qismdan chiqish qilib jumrak o'rnatildi. So'ng chiquvchi suv kauchuk quvurlar orqali mikromatorga o'rnatildi. Mikromator suvni bir maromda aylanib turishini ta'minladi.

Keyingi qadamda biz suv aylanmasi idishiga o'rnatilgan mikromatoridagi rezina quvur, sun'iy kondensatorga o'rnatildi. Sun'iy kondensatoridagi chiquvchi suv rezina quvur orqali suv aylanmasi uchun mo'ljallangan idishga mahkamlandi.

Shtativga tagi yumaloq kolba o'rnatildi va aralashma solindi. Nayli tiqinni sun'iy kondensatorga rezina quvurlar orqali o'rnatildi. Kolbaga rangli spirt va suv aralashmasi solindi va og'zi nayli tiqin bilan yopgan holda usti yopiq qizdirish (elektr pechi) asbobida qizdirildi. Ma'lum vaqtdan so'ng spirt bug'lari ajralib sun'iy kondensatorida suyuq holatga o'ta boshladi. Suyuq holatdagi sof spirt qabul qiluvchi stakanga yig'ib olindi. Yorlig' yozib belgilandi.



3- rasn. Maktab laboratoriyasida suv bo'lmagan holda sovuq suv aylanmasini yo'lga qo'yish.

Maktab laboratoriyalarida haydash usuli uchun sovutish bo'lmagan holda sovuq suv aylanmasini yo'lga qo'yish bo'yicha tavsiya va takliflar. Maktablarimiz bugungi kunda ko'plab o'ziga xos yangiliklarni kashf etib, kelmoqda. Har bir fizik va kimyoviy jarayonlarda o'ziga xos metodik yondashuvlar

takomillashmoqda. Maktab laboratoriyasiga to'xtaladigan bo'lsak, deyarli 80 – 90 % gacha hamma sharoitlar mavjud. Endi shu 10 – 20 % gacha bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagilar tavsiya qilindi. Laboratoriya sharoitida aralashmalarni ajratishda haydash usulida suv muhim hisoblanadi. Bilamizki ba'zi maktab laboratoriyalarida doimiy suv mavjud emas. Shuning uchun ushbu kamchilikni bartaraf etish maqsadida suv aylanish mexanizimini yuzaga keltirish talab etiladi. Buning uchun hajmi kattaroq bo'lgan polietilenli idishlardan foydalanildi. Uning tag qismi va yuqoriroq qismidan suvni chiqish va kirish yo'llari hosil qilindi. So'ngra idishda suvni almashtirish uchun yana alohida tag qismidan rezina quvurdan jumrak o'rnatildi. Idishning ustki qismi yopiq holatda bo'lib, zarur bo'lganda suv solish uchun ochiladi. Idishdan chiqadigan suv rezina quvur orqali mikromatorga undan esa kondensatorga o'rnatildi (3–rasm). Kondensatorda suv to'lib bo'lgandan so'ng chiqish qismi rezina quvur orqali to'g'ri polietilenli idishga qaytarildi. Bu holatda mikromator bo'lmasa ham sun'iy bosim hosil qilinilib, undan suv aylanmasini shu holatda amalga oshirish mumkin.

Agar maktab laboratoriyasida tok bo'lmasa quyidagi amalni ham bajarsak bo'ladi. Buning uchun binoning yuqori qavatiga 600 – 700 l (50 – 60 chelak va undan ko'proq) suv ketadigan bak o'rnatiladi. Bakni cherdakka qo'yish ham mumkin, lekin bunda suv muzlab qolmasligi uchun uning atrofini o'rab qo'yish kerak bo'ladi. Bak qancha yuqori o'rnatilsa suv vodoprovod jumraklaridan shuncha yaxshi tushadi, ammo bakka suv chiqarish qiyinroq bo'ladi. Bak sinf devorining teparog'iga temir ilgak yordamida o'rnatilishi ham mumkin. Devorga yaxshi mahkamlangan ilgak 250 l suv ketadigan bak o'rnatilsa bo'ladi, bunday bak ko'p joy olmaydi. (50 • 50 • 100 sm). Bak yashikka o'xshatib temir taxtalarni bir – biriga parchinmix yordamida birlashtirib yasaliishi yoki taxtadan qilinib ich tomonidan qo'rg'oshin bilan qoplangan bakning bir avzalligi bor: suv tarkibidagi moddalar qo'rg'oshin bilan birikib, juda oz miqdor qo'rg'oshin birikmalarini hosil qiladi, bu birikmalar bakteriyalarni o'ldiradi. Natijada suv buzilmaydi. Bak qopqoq bilan berkitiladigan bo'lishi lozim. Bakka uning ichidagi suv satxini ko'rsatib turuvchi moslama qilinadi.

Xulosa

Haydash usuli maktab laboratoriyalarida aralashmalarni ajratishning xavfsiz va oson usulini ta'minlaydi. Yuqoridagi tartibni bajarib, kerakli materiallardan foydalangan holda, talabalar bir xil qaynash haroratli birikmalarni ajratib olishlari va turli moddalarning xossalarini yaxshiroq tushunishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, maktablarda Haydash usulini o'rgatish o'quvchilarga kimyo va fan bo'yicha fundamental tushunchalarni berish, ularni STEAM sohalarida martaba izlashga ilhomlantirish, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun juda muhimdir. Haydash usulini fan o'quv dasturlariga kiritish orqali o'qituvchilar talabalarni XXI asr iqtisodiyotida muvaffaqiyatga tayyorlashga yordam berishi mumkin. Deylik turli xil efirlarni olish uchun ham boshlang'ich qiliniladigan jarayonimiz haydash orqali efiri mavjud bo'lgan gul va o'simliklarni spirtida eritib, olish mumkin.^[6]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 7th grade Azerbaijani school textbook БÀÊÓ—2018
2. Chemistry student textbook grade 7 Authors, Editors and Solomon Tekleyohannes (M.Sc.) Tesfaye Jinore (B.Sc.) Tesfa Bedassa (M.Sc.) Merid Tessema (Ph.D) ISBN 978-99944-2-285-2
3. STEM for all edicational leadership, december 2014/ january 2015.
4. Facts On File science experiments Chemistry Experiments Pamela Walker
5. Elaine Wood © 2011 Facts on File. All Rights Reserved.
6. Erica L. Colón, PhD: Awesome Physics Experiments for Kids. Copyright © 2019 by Rockridge Press, Emeryville, California

ILG‘OR TEXNOLOGIYALAR MOHIYATI VA IQTISODIYOTDAGI AHAMIYATI

Kanjayev Sherzod Nurlayevich

TATU Nurafshon filiali Raqamli iqtisodiyot magistranti

Ilg‘or texnologiyalar (yoki ilg‘or raqamli texnologiyalar) — bu shunday texnologiyalar turi-ki, ular aynan bir sohadagi faoliyat yoki xizmat turiga bog‘liq bo‘lmasdan, deyarli barcha sohalar, jumladan, sanoat, qurilish, ta‘lim, tibbiyot, energetika, qishloq xo‘jaligi kabilarda birdek keng qo‘llaniladi. Ular asosan yangi turdagi mahsulot va xizmatlar yaratish uchun emas, balki mavjudlari rivojlanishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatuvchi, bozorlardagi vaziyatni o‘zgartiruvchi yoki yangi bozorlar shakllanishiga ko‘maklashuvchi yo‘nalish hisoblanadi. Umumiy olganda, ilg‘or raqamli texnologiyalar texnologik rivojlanish va internetdan foydalanishni qo‘llash orqali yaratilgan yangi tizimdir. Bu tizimda axborotlar, har bir harakat va ko‘rsatmalar ma‘lumotlar bazasida saqlanib, avtomatik ravishda to‘planib boradi va yaratilgan baza asosida ishlab chiqarish jarayoni avtomatlashtiriladi. Yuqori potensialga ega, amalda jadal rivojlanishni ta‘minlaydigan ushbu tur hozircha an‘anaviy texnologiyalarga nisbatan kam tarqalgan, lekin jahon miqyosida xizmat va mahsulotlarni loyihalash va ishlab chiqarishdagi o‘zgacha yondashuv va usullar orqali juda tez sur‘atda raqobatda yutib chiqmoqda. Ilg‘or raqamli texnologiyalar iqtisodiy faoliyatni samaraliroq va total nazorat qilishga imkon beradi, shuningdek, yangi ish o‘rinlari yaratish va innovatsiyalarni rag‘batlantirishga olib keladi. Xususan, O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, jamiyat va iqtisodiyotning turli sohalarida yagona elektron platformani yaratish orqali ma‘lumotlarni kiritish, to‘plash, shakllantirish va tahlil qilishning zamonaviy uslubi

yo'lga qo'yilgan. Bu jarayon, ayniqsa, COVID-19 pandemiyasidan keyin tezlashdi va davlat xizmatlari, arxiv, soliq, bank sohalarida namoyon bo'lmoqda¹.

Ilg'or texnologiyalar universal vositalar bo'lib, ulardan yirik va kichik biznesda, og'ir sanoat va qishloq xo'jaligida, davlat va xususiy sektorda birday foydalanish mumkin. Mazkur texnologiyalarni o'z sohalariga jalb qilgan tomonlar ilg'or texnologiyalarning tobora kengayib borayotgan imkoniyatlaridan foydalangan holda odatdagidan ko'proq sharoitlar va vakolatlarga ega bo'lmoqda.

Sun'iy intellekt (Artificial Intelligence - AI) bu mashinaning inson ongi imkoniyatlariga taqlid qilishi, kompyuterlarni odam kabi o'ylash va yechim topishga yo'naltirilgan raqamli texnologiya bo'lib, bu tizim muntazam ravishda qo'shimcha funksiyalar bilan kengaytirilmoqda. Bu texnologiya, bizning harakatlarimiz va ko'rsatmalarimizni o'rganadi va bizning ko'rsatmalarimizni boshqa sohalarga moslashtiradi. Xorijda sun'iy intellekt texnologiyasini ko'plab sohalarda qo'llayotgan mamlakatlar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, sog'liqni saqlash sohasida sun'iy intellektga asoslangan raqamli texnologiyalar kasalliklarga tashxis qo'yish va umr ko'rish davomiyligini uzaytirishga yordam bermoqda. Shuningdek, Daniya 2018-yilda soliq hisobotlarini yashirish natijasida qariyb 325 million AQSh dollari zarar ko'rgan. Mamlakat hukumati sun'iy aql vositalarini o'z soliq tizimiga tatbiq etishi natijasida soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlashning har 100 holatidan 85 tasini muvaffaqiyatli aniqladi².

Raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan asrda eng muhim manba bu - ma'lumotlar hisoblanadi. Ularni turli manbalardan to'plab, o'rganishlar asosida xulosalar chiqarishda Big Data texnologiyasining ahamiyati katta. Undan ko'pincha katta ma'lumotlarning prognozli tahlillariga yoki ma'lumotlardan qiymat chiqarib olishning boshqa usullariga murojaat qilishda foydalaniladi. Dastlab Big Data atamasi kuniga 100 gigabaytdan ko'p ma'lumot tushadigan oqimlarga nisbatan qo'llanib kelingan. Keyinchalik ma'lumotlarning keskin ko'payishi oqibatida mazkur

¹ ["Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida](#) – O'z. Res. Prezidenti Farmoni, 06.10.2020

² [Raqamli texnologiyalar imkoniyatlari](#) - Yangi O'zbekiston, Raqamli texnologiyalar imkoniyatlari. I. Toshmatova 19.05.2021

tushuncha yanada keng qamrov kasb eta boshladi. Bugungi kunda ushbu atama odatda soniyasiga gigabayt darajasidagi katta hajmdagi ma'lumotlarga nisbatan qo'llaniladi. Big Data texnologiyalaridan olinadigan daromadlar yildan-yilga o'sib bormoqda. AQSh, Avstraliya kabi mamlakatlarda katta hajmli ma'lumotlar texnologiyalarini rivojlantirish va moliyalashtirish bo'yicha maxsus davlat dasturlari ishlab chiqilgan¹.

Zamonaviy moliyaviy operatsiyalar, foydalanuvchilar ma'lumotlarini saqlash va kiberxavfsizlik sohasini blokcheyn texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Markazlashmagan, axborot xavfsizligi va onlayn erkinlikni ta'minlashda blokcheynga asoslangan Internetning yangi avlodi – Web 3.0 ma'lumotlar bozorida yuqori o'ringa ega bo'lib ulgurdi. Bu muvaffaqiyatning asosiy poydevori esa ma'lumotlar tarixini saqlash va ularni ko'chirishni cheklash algoritmidir. Aynan shu sababdan ham ular bank, moliyaviy xizmatlar, hukumat tashkilotlari, ko'chmas mulk va logistika uchun juda muhim bo'lib bormoqda. 2022-yil holatiga ko'ra sanab o'tilgan sohalarda blokcheyn uchun deyarli 10 milliard AQSh dollari sarmoya kiritilgan. 2022-2029-yillar prognoz davrida blokcheyn texnologiyasi bozori o'rtacha yillik o'sish sur'ati 56%ga yetadi, 2030-yilga kelib esa trillion AQSh dollariga baholanishi kutilmoqda. Blokcheyndan raqamli valyutalar tranzaksiyasi uchun foydalanilayotgani sababidan, moliyaviy tarmoq blokcheynning asosiy ulushiga ega bo'lib qolmoqda. Ammo mazkur texnologiya xavfsiz axborot almashinuvi, ma'lumotlar shaffofligi va raqamli identifikatsiya uchun ham samarali ishlatilishi mumkin².

So'nggi yillarda Internetga ulangan va masofadan boshqariladigan qurilmalarning keskin ko'payishi buyumlar Interneti (IoT – Internet of Things)ning asosiy trendiga sabab bo'ldi. Ushbu turdagi texnologiyalar tarmoqqa ulangan va bir-biriga ko'maklashuvchi qurilmalar o'rtasida aloqa o'rnatadi va natijada samaradorlik va iqtisodiy daromad oshib, ishchi kuchiga tushadigan yuk kamayadi. Soha nisbatan

¹ [Raqamli texnologiyalar imkoniyatlari](#) - Yangi O'zbekiston, Raqamli texnologiyalar imkoniyatlari. I. Toshmatova 19.05.2021

² [Trends in Blockchain technology in 2023](#) – How is the blockchain technology is growing? A. Horiachko, 22.03.2023

yangi bo‘lishida qaramay, 2018-yildayoq Internetga ulangan qurilmalar son jihatdan insonlarni ortda qoldirib, 8 milliardlik marraga yetgan. 2022-yil hisobi bo‘yicha dunyoda 14.4 milliard shunday qurilmalar aktiv holatda ishlamoqda. Soha ekspertlari fikriga ko‘ra, bu ko‘rsatkichlar, aslida oldingi yillarga nisbatan past o‘lishni ifodalaydi, sababi dunyo miqyosida ishlab chiqarilayotgan chip yetishmovchiligi bo‘lib, ushbu omil bozor kengayishini sekinlashtirmoqda¹.

Hozirgi kunda bir xil vazifani bajarishga qaratilgan loyihalarda tamoman farqli usul va ishlanmalardan foydalanilmoqda. Muqobili yo‘q innovatsion loyihalar shunchalar ko‘p-ki, ularning har birini sanoat miqyosida ishlab chiqarish imkonsiz. Chunki, bu kabi ishlanmalar, asosan, yosh havaskorlar tomonidan startap sifatida yaratilgan va katta ehtimol bilan real sharoitlarda sinab ko‘rilmagan bo‘ladi. Buning yechimlaridan biri sifatida 3D printlash texnologiyasini qo‘llash mumkin. Mazkur texnologiya yordamida katta quvvat sarfini tejagan holatda kam sonli sinov namunalarini yaratish mumkin. Bunda kamchiliklarni tezda bartaraf etish orqali ishlanma hayotga tadbiiq etiladi. O‘zgartirishlar esa shunchaki ob‘yektning raqamli uch o‘lchamli modelida amalga oshiriladi. 1980-yillarda 3D printlash faqat ikkinchi darajali ehtiyot qismlari ishlab chiqarish uchun mos deb hisoblangan va shunga yarasha tezkor prototiplash sifatida nomlangan. 2019-yildan keyin 3D printlashda materiallar diapazonidagi aniqlik va oson takrorlanuvchanlik shunday bosqichga ko‘tarildi-ki, endilikda jarayon sanoat ishlab chiqarish texnologiyasi sifatida baholanmoqda².

XXI asrda Internet orqali taqdim etiladigan onlayn xizmat ko‘rsatish tizimlari uchun “bulutli texnologiyalar” terminidan foydalanilmoqda. Bulutli texnologiyalarning mohiyati foydalanuvchilarga Internet orqali xizmatlarga, hisoblash resurslari va dasturlariga, shu jumladan, operatsion tizimlar va onlayn platformalarga masofadan turib kirish va ishlash imkoniyatini berishdan iborat. Ushbu hosting sohasining rivojlanishi alohida dasturiy ta‘minot va raqamli xizmatlarga ehtiyoj paydo bo‘lishiga olib keldi, bugungi kunda an’anaviy yondashuv

¹ [Number of connected IoT devices growing 18% to 14.4 billion globally](#) – State of IoT 2022, M. Hasan, 18.05.2022

² [3D printing](#) – Wikipedia, Free Online Encyclopedia, 2023

bilan taqqoslaganda “bulutli texnologiyalar” tejamkor va samarali deya baholanmoqda. Bulutli hisoblash texnologiyalari kelajak texnologiyalari sifatida e’tirof etiladi, chunki barcha zamonaviy kompyuter mahsulotlari foydalanuvchilar kompyuterining texnik jihozlariga bo‘lgan talablarini doimiy ravishda oshirib boradi, bu esa muqarrar ravishda yangilanish xarajatlarini keltirib chiqaradi. Dasturiy ta’minot va o‘yin sanoati, ayniqsa tizim resurslariga talabchan bo‘lib bormoqda. Bulutli texnologiyalarning paydo bo‘lishi kuchli, qimmat kompyuterlarni sotib olish muammosini hal qildi. Endi foydalanuvchilar tizimda drayverlar to‘liqligini yoki qurilmaning ishlashini kuzatishi, eski avlod ehtiyot qismlarini doimiy o‘zgartirishlari shart emas. Bulutdan foydalanadigan tashkilotlar va shaxslar kuchli serverlarni moliyalashtirishdan voz kechishlari mumkin. “Bulutli” xizmatlardan foydalanish uchun foydalanuvchiga faqat yuqori tezlikdagi Internet va funksional brauzer yetarli¹.

Nazariy fan va amaliy texnologiyalar rivojlanishi nanotexnologiyalar yo‘nalishi paydo bo‘lishiga olib keldi. Endilikda atom tuzilishi ustida tadqiqot o‘tkazish va natijalarini tahlil qilish usullari yordamida oldindan belgilanadigan atom tuzilishiga ega mahsulotlar ishlab chiqarish va ulardan foydalanish mumkin. Nanomaterial deb hisoblanishi uchun o‘lchamlar 100 nm (metrning milliarddan bir qismi) dan kam bo‘lishi zarur. Nanotexnologiyalarning amaliy jihati atomlar, molekulalar va nanozarrachalarni yaratish, qayta ishlash va manipulyatsiya qilish uchun zarur bo‘lgan qurilmalar va ularning tarkibiy qismlarini ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi. Nanoolam o‘z bag‘riga elektronika, biologiya, tibbiyot, energetika, materialshunoslik va boshqa sohalarni qamrab olgan, uning chegaralari muntazam kengaymoqda. Texnologiyalarning ushbu turi an’anaviy fanlardan sifat jihatidan farq qiladi, chunki bunday kichik shkalalarda materiya bilan ishlashning odatiy makroskopik texnologiyalari ko‘pincha, qo‘llanilmaydi va odatdagi shkalada ahamiyatsiz bo‘lgan mikroskopik hodisalar sezilarli darajada kuchayadi. O‘zbekiston aholisi nanotexnologiyalar asosida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlardan kundalik hayotida foydalanaymoqda. Masalan, sintezlangan kumush nanozarrachalari bir qator gigiena

¹ [“Bulut texnologiyasi” nima?](#) – Shongames, 2022

vositalariga qo‘shilmoqda. Bu esa mahsulotlarning bakteritsid hamda davolash xususiyatini oshirayotir. 2014-yili Respublika ixtisoslashtirilgan dermatologiya va venerologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida o‘tkazilgan klinik tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, ishlab chiqarilayotgan kumush nanozarrachalari eritmasi teri yallig‘lanishi kasalliklari, xususan, ekzema, yuqumli dermatit, mikoza va boshqa xastaliklarda yordam beradi¹.

Raqamli texnologiyalar tariximizdagi har qanday innovatsiyaga qaraganda tezroq rivojlandi – soha XXI asrning dastlabki 20 yili ichida dunyo aholisining qariyb yarmini qamrab oldi va jamiyatlarni tubdan o‘zgartirdi. Biroq, ilg‘or texnologik yutuqlardan hamon foydalanmayotgan jamiyatlar ushbu yangi davrning imkoniyatlaridan uzilib qoladilar va taraqqiyotda orqada qolishadi. Global raqamli trendlar barcha mamlakatlarga birdek kirib borishiga yo‘l qo‘ymayotgan xilma-xil sharoitlarni muvozanatga keltirishi talab qilinadi.

Tarix davomida texnologik inqiloblar ishchi kuchini tubdan o‘zgartirgan: mehnatning yangi yo‘nalishlari va shakllarini yaratish orqali an’anaviy shakllarni eskirgan deb hisoblanishiga va kengroq ijtimoiy o‘zgarishlarga olib kelgan. Hozirgi o‘zgarishlar to‘lqini ham mehnat resurslariga shunday chuqur ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Misol uchun, McKinsey konsalting agentligi hisobotlari shuni ko‘rsatadi-ki, 2030-yilga borib butun dunyo bo‘ylab 800 million kishi avtomatlashtirish tufayli o‘z ishini yo‘qotishi mumkin. Ushbu so‘rovlarda aniqlanishicha, barcha xodimlarning aksariyati yaxshi maoshli ishga ega bo‘lish uchun zarur tayyorgarlik yoki ko‘nikmalarga ega emasligidan, bugun o‘zlashtirilgan ko‘nikmalar ertangi texnologiyalar uchun foydasizligidan xavotirda. Shu bilan birga, Xalqaro Mehnat Tashkilotining hisob-kitoblariga ko‘ra, yashil iqtisodiyotga o‘tish energetika sohasida barqaror amaliyotlarni o‘zlashtirish, elektr transport vositalaridan foydalanish hamda mavjud va kelajakdagi binolarda energiya samaradorligini oshirish orqali 2030-yilga kelib dunyo bo‘ylab 24 million yangi ish o‘rni yaratishi mumkin. Ushbu

¹ [Nanotexnologiya rivojlanishi odimlari](#) – U. Qosimova. 11.03.2021

tendentsiyalarni boshqarish, masalan, fan, texnologiya va muhandislikga ko'proq e'tibor berish orqali ta'limga bo'lgan yondashuvimizni o'zgartirishni talab qiladi.

Bugungi kunda ma'lumotlarni yig'ish va sun'iy intellekt kabi raqamli texnologiyalar qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash va atrof-muhitga oid muammolarni kuzatish va tashxislash, tirbandliklarni boshqarish yoki to'lov xizmatlari kabi kundalik vazifalarni bajarish uchun qo'llaniladi. Ular inson huquqlarini himoya qilish va shu yo'nalishdagi qonunlarni ijro etish uchun ishlatilishi mumkin, lekin ular, masalan, harakatlarimizni, xaridlarimizni, suhbatlarimiz va xatti-harakatlarimizni kuzatish orqali ayni o'sha qonunlarni buzish uchun ham ishlatilishi mumkin. Hukumatlar va korxonalar moliyaviy va boshqa maqsadlarda ma'lumotlarni qayta ishlash va ulardan foydalanish vositalariga tobora ko'proq ega bo'lmoqda. Biroq, shaxsiy ma'lumotlarga egalik huquqini yaxshiroq tartibga solish formulasi yaratilmasa, fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlari endi biznes uchun aktivga aylanib boradi. Ijtimoiy tarmoqlar butun dunyo aholisining yarmini bir-biri bilan bog'laydi. Bu odamlarga o'z ovozlari eshitish va real vaqt rejimida butun dunyo bo'ylab boshqa odamlar bilan muloqot imkonini beradi. Biroq, u nafrat ruhida shiorlar va asossiz ma'lumotlar platformasini qurish orqali noto'g'ri qarashlarni kuchaytirishi va xalqaro kelishmovchilikni keltirib chiqarishi mumkin. Shu tarzda, ijtimoiy mediya algoritmlari dunyo bo'ylab jamiyatlarning bo'linishini kuchaytirishi mumkin. Va shunga qaramay, ular buning aksini qilish imkoniyatini ham saqlab qoladi, albatta.

Ushbu voqealarni qanday boshqarish kerakligi - geosiyosiy keskinliklar kuchayib borayotgan bir paytda - milliy va xalqaro miqyosda ko'p muhokama qilinadigan mavzu. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi har biri o'z Internet va sun'iy intellekt strategiyasiga ega bo'lgan, shuningdek, valyuta, savdo va moliyaviy qoidalar va qarama-qarshi geosiyosiy va harbiy qarashlarga ega bo'lgan jahon kuchlari o'rtasida "katta yorilish" haqida ogohlantiradi. Bunday bo'linish yangi "raqamli Berlin devori"ni yaratishi mumkin. Tinchlik va xavfsizlik, inson huquqlari va barqaror rivojlanish uchun global standartlarni aks ettiruvchi universal kibermakon davlatlar o'rtasidagi raqamli hamkorlik tobora hal qiluvchi ahamiyatga ega

bo'lmogda. "Raqamli hamkorlik bo'yicha global majburiyat" Bosh kotibning raqamli hamkorlik bo'yicha yuqori darajadagi guruhining asosiy tavsiyasidir.

Ilg'or texnologiyalar insonlarning umr ko'rish sifati va davomiyligini yaxshilash, sanoatni rivojlantirish va jamiyat xavfsizligini ta'minlash imkoniyatlaridir. Odatda bu turdagi texnologiyalar aynan qanday ishlashini tushuntirish qiyin, ularni tushuntiruvchi yangi termin va ta'riflar esa mavhum. Lekin, asosiy ma'noni tushunish muhim: ilg'or texnologiyalar ta'lim, tibbiyot, sanoat va qishloq xo'jaligi kelajagi sifatida bir butun tizimdir va bu taraqqiyot uchun zarur.

THE ROLE OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING THE FUNDAMENTALS OF NURSING

Miragzamova Gulnora Mirmansurovna

Public Health College named after Abu Ali ibn Sina

Teacher of Department of Nursing

miragzamovagg@gmail.com

ABSTRACT:

This paper discusses the role and importance of modern pedagogical technologies in teaching the basics of nursing, the methods and means of forming the growing future staff as comprehensive specialists with the effective use of modern equipment.

Key words: *Education, education, profession, textbook, technology, visual, tactile, information communication technologies.*

INTRODUCTION:

The introduction sets the stage by highlighting the significance of nursing education and the challenges faced by educators. It explains the purpose of the article and provides an overview of the role of modern pedagogical technologies in addressing these challenges.

Methods:

This section outlines the methods employed to gather relevant information and data for the article. It may include a literature review, surveys, interviews, or case studies conducted to investigate the impact of modern pedagogical technologies on nursing education. The sources utilized will be cited to ensure credibility and reliability.

Enhanced Learning Experience: Modern pedagogical technologies, such as virtual simulations, augmented reality (AR), and virtual reality (VR), provide students with immersive learning experiences. These technologies allow students to practice clinical skills, engage in realistic patient scenarios, and make critical decisions in a safe and controlled environment. By actively participating in these simulations, students can develop confidence, improve their clinical reasoning abilities, and bridge the gap between theory and practice.

Personalized and Adaptive Learning: Pedagogical technologies offer the opportunity for personalized and adaptive learning experiences. Intelligent learning systems and online platforms can assess individual student's strengths and weaknesses and provide tailored content and activities accordingly. This personalized approach helps students focus on areas where they need improvement, enabling them to progress at their own pace and optimize their learning outcomes.

Access to Resources and Collaboration: Technology has made it easier for nursing students to access a wide range of educational resources. Online platforms, digital libraries, and educational websites provide students with up-to-date information, research articles, multimedia content, and practice quizzes. Additionally, technology facilitates collaboration among students and educators, allowing them to connect remotely, share knowledge, and engage in group discussions, thereby fostering a collaborative learning environment.

Asta sekin tartibli ta'limning amaliy natijalari jadid maktablarining natijali faoliyatida ko'zga tashlanib, Ishoqxon Ibrat yangicha ta'lim-tarbiya tizimining imkoniyatlarini ko'rsatib berishda asosan erishgan muvaffaqiyatlarga, o'zi amaliyotga tadbiq etgan yangi usullarga asoslanligini yozadi. Jumladan: "Men o'zum ham o'zumga qarashlik o'nta-o'n beshta bolalarni eski maktabda hech bahra topmay, behuda yurduklarina jonim achib, Qozon tarafidan... bir muallim jalb edub, maktab qilib berdim. Maktabning kushodig'a uch oy bo'lgani yo'q, yigirmadan ziyoda kichik bolalar, o'n beshta odamlar "alif nima?" degan savolina "kaltak" deb javob beruvchilar tamom savodi chiqib, har narsani yozadurgon bo'ldilar. To'rt-beshta, etti va sakkiz sanalar Qo'qong'a yurub hech narsa bilmagan mullabachchalar bitamomihi arabiy mukolamag'a qodir bo'lub, har bir kitoblarni mutoalaa etadurgon bo'ldilar. Shul sababdin biz ko'zumiz ila tajriba qilib, bul o'qitishga tamom ixlos qildik"[6, 328].

Ma'rifatparvar Ishoqxon Ibrat maktabining yangicha ta'lim tizimidagi o'rnini sifatida haftalik dars jadvalini joriy qilganligi bilan izohlaydi. Ishoqxon Ibrat o'ndan ortiq tilni bilgan va ruscha so'zlarni arabcha yozilishini bir tizimiga keltirib, "Lug'ati sitta as-sina" nomli asarini nashr etgan. Asarda olti til ya'ni arab, fors, turk, sart, hind, rus tillari jamlangan bo'lib, rus alifbosini bilmaydigan xalqlar uchun amaliy yordam berishni samarali usuli sifatida tavsiya etadi. Asar millatni xorijiy tilni o'rganishga bo'lgan millat ehtiyojini qondirish va jahon ilm-fani va madaniyati yutuqlariga yaqinlashtirish uchun yaratilgan bo'lib Ishoqxon Ibrat o'zi tomonidan tashkil etilgan maktabiga o'z davrining ilg'or pedagogi, rus tilini bilimdoni bo'lgan tatar maorifparvari Husain Makaevni taklif qilib, yoshlarni, millatni ilm-ma'rifatli qilish yo'lida harakat qildi.

Ziyoli jadidlar mahalliy yoshlarni o'z ona-Vatani va millatini kelajigi borasida jon kuydiruvchi, mintaqa hayotida muhim o'rinlarini egallashi va mutaxassislar bo'lib etishishlarida xorij tilini o'rganish suv va havodek zarurligini matbuotlarda qayta-qayta nashr qilganlar. Jadidlarning etakchi vakillaridan hisoblangan Sadridin Ayniy "Har millat o'z tili ila faxr etar" nomli maqolasida turkiy tildagi ma'nodoshi bo'lsa ham, tilga evropacha so'zlarni, ularning qo'shish unga putur etkazishi mumkinligiga urg'u bergan. Abdulla Avloniy esa har bir millat o'z ona tili va adabiyotini saqlamagini o'z navbatida "hifzi lison" deb ta'kidlagan. Chunonchi, "har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadig'on oynai hayoti tili va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak, millatni ruhini yo'qotmakdur"[5,126].

Jadidlar jamiyat taraqqiyotini, Turkiston o'lkasidagi mavjud kamchiliklarni tahlil qilib eng avvalo maorif islohotida, nashriyotlarning rivojida, iqtisodiyotning islohida amaliy natijalarga erishganliklaridadir. Ushbu loyihalarni amalga oshirishda mablag'ni muruvvatli boylar o'z sarmoyalarining ma'lum qismidan ajratishlari zarurligini ta'kidlaganlar. Shu bilan birga yoshlarni birlashtirish va foydali ishlarga jalb etish orqali, madaniy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirganlar.

Ta'kidlash lozimki, yuz yil muqaddam yoshlarni bilimli-ilmli bo'lishiga doir Behbudiy tomonidan bildirilgan fikr yangi taraqqiyot bosqichida ham o'z

dolzarbligini yo‘qotmagan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tashabbusi bilan o‘g‘il-qizlar nafaqat Evropaga, balki Amerika, Janubiy Koreya, Xitoy, Yaponiya, boshqa davlatlarga ham yuborilmoqda. O‘zbekiston yoshlari uchun ingliz, nemis, fransuz, rus, xitoy – turli chet tillarini o‘zlashtirish kun tartibidan alohida o‘rin olgan. Jadidlar etakchilarining asriy orzulari amalga oshayotir.

Jadidlarning konseptual falsafiy g‘oyalari hozirgi innovasion taraqqiyotning darakchisi, bugungi kundagi strategiya yo‘nalishdagi demokratik islohotlarning genetik asosi bo‘lib xizmat qilmoqda. Chunki ularning siyosiy dasturlari umuminsoniy xususiyatlarni asosan erk, ozodlik, adolat, mustaqillik kabi g‘oyalarni tarannum etadi. Bu esa o‘z navbatida jadidchilik harakati mustaqillikka erishishimizga g‘oyaviy asos bo‘lganligidan dalolatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi. - Toshkent.: Ma’naviyat, 2017.-B.184.
2. Maxmudxo‘ja Bexbudi. Tanlangan asarlar. - Toshkent.: Ma’naviyat, 2009. – B.17.
3. Niyoziy Rajabzoda. “Ibtidoiy maktablarimizning tartibsizligi yohud taraqqiyning yo‘li” //“Oyna” jurnali 1914 yil 27-soni.
4. Azimiy Abdusalom. Ta’lim va tarbiya. //“Oyna” jurnali. 1915 yil, 5 fevral soni.
5. Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq // Tanlangan asarlar. 2 jildlik. 2-jild: - Toshkent.: Ma’naviyat, 2006. –B.126
6. Jakbarov M. Ishoqxon Ibrat ijodi va falsafiy qarashlari // O‘zbek falsafasi tarixi (III jild). – Toshkent.: Muharrir, 2020. –B.328.

ЦЕЛЛЮЛОЗА САНОАТИ ИККИЛАМЧИ МАҲСУЛОТЛАРИДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ

Мамура Касимовна Абдумавлянова

mamura.abdumavlyanova.63@mail.ru

Асрор Ҳасанович Мардонов

asror_mardonov@mail.ru

Тошкент кимё-технология институти

АННОТАЦИЯ

Тадқиқот мақсади – целлюлоза саноати иккиламчи маҳсулоти “лигнин” асосида полиметиленигнин сульфокислота синтез қилиши, уни структураси ва физик-кимёвий хоссаларини аниқлаш, олинган маҳсулотларни қурилиши, ҳамда саноат корхоналарида ишлатиладиган импорт суперпластификатор, шунингдек корхона оқова сувларини тозаловчи катионитлар сифатида қўлланилишини тадқиқ қилиши. Лигниндан чизиқли ва фазовий полиметиленигнин сульфокислота синтези жараёни шароитлари ўрганилди. Олинган янги суперпластификатор (СП) ва катионитнинг (АСО) тузилиши ИҚ-спектроскопия ва СЕМ (сканерловчи электрон микроскоп) усуллари ёрдамида ўрганилди. Катионитнинг ТГА/ДТА термал таҳлили ўтказилди. Суперпластификаторни бетон аралашмаларига таъсири ўрганилди. Катионитларнинг эксплуатацион хоссалари аниқланди. Катионитларнинг муҳим эксплуатацион хоссаси СОЕ(статик алмашишни сизими) ва ДОЕ(динамик алмашишни сизими) аниқланди. $СОЕ = 4,6 \text{ мг-екв/г}$, $ДОЕ = 475-490 \text{ мол/м}^3$. 0,8% суперпластификатор қўшилганда бетон аралашмалари мустаҳкамлигини 84,39 % га ошириши аниқланди.

Калим сўзлар: *целлюлоза саноати иккиламчи маҳсулоти, лигнин, поликонденсация, сульфолан, полиметиленигнин сульфокислота, суперпластификатор, сульфокатионит, термик ва кимёвий барқарорлик, алмашишни сизими.*

ANNOTATION

Purpose of scientific research - synthesis of polymethylene lignin sulfonic acid based on a secondary product of the cellulose industry "lignin", determination of its structure and physicochemical properties, study its use as superplasticizers used in construction, as cation exchangers for industrial wastewater treatment. The conditions of the process of synthesis of linear and spatial polymethylenaphthalene sulfocyanate using naphthalene fraction obtained by fractional driving of pyrolysis secondary product "pyrolysis oil" were studied. The structures of resulting new superplasticizer (SP) and cationite (ASO) were studied using IR-spectroscopy and SEM (scanning electronic microscope) methods. TGA / DTA thermal analysis of cationites was performed. The effect of superplasticizer on concrete mixtures has been studied. Excretory specimens of cationites were determined. An important operational characteristic of cationite COE (static exchange capacitance) and ДОЕ (dynamic exchange capacitance). $COE = 4,6 \text{ mg-ekv/g}$, $ДОЕ = 475-490 \text{ mole/m}^3$ have been determined. It was found that at adding 0,8% superplasticizer strength of concrete mixtures has increased by 84,39%.

Key words: *secondary product of the cellulose industry, lignin, polycondensation, sulfonation, polymethylenlignin sulfocyanate, superplasticizer, sulfocationite, thermal and chemical stability, exchange capacity.*

КИРИШ

Ҳозирги вақтда қурилиш саноати жуда тез суръатлар билан ривожланиб бормоқда. Қурилиш саноатида хомашё ва энергия ресурсларидан оқилона ва самарали фойдаланишга қўйиладиган талаблар ҳам мос равишда ўзгариб, битон аралашмаларининг мустаҳкамлиги, ишончилиги ва чидамлилиги юқори бўлган йиғма, монолит бетон ва темир-бетон конструкцияларни ишлаб чиқариш муаммосини самарали ҳал қилиш учун махсус кимёвий қўшимчалардан кенг фойдаланишни талаб қилади[1]. Целлюлоза олиш жараёнида иккиламчи маҳсулот сифатида кўп миқдорда лигнин ҳосил бўлиши

туфайли ундан фойдаланишнинг муҳим йўналишларидан бири бетон аралашмалари учун пластификаторлар ишлаб чиқариш ҳисобланади. Бетон материаллари мустаҳкамлигини камайтирмасдан оқувчанлигини оширишда суперпластификаторлар - полимер қўшимчалар кенг қўлланилади. Кимёвий пластификаторлар таркиби жиҳатидан нафталин сульфокислотасининг формалдегид конденсати, меламина формалдегид конденсати, лигносулфонатларнинг модификациясидан олинган маҳсулотлардан иборат [2-4]. Ҳозирги кунда дунё бўйича йилига 1,25 млн тоннадан ортиқ суперпластификаторлар ишлаб чиқарилмоқда. Бу кўрсаткич йилдан-йилга ортиб бормоқда.

Кимё саноатини эса синтетик ионитларсиз таъсаввур қилиб бўлмайди чунки, ионитлар турли соҳаларда ишлатилади: тозаланган ёки тузсизлантирилган сув олишда, гидрометаллургия саноатида рангли ва қимматбаҳо металлларни ажратишда, оқова сувлардан токсик ва оғир металлларни ажратиш учун ишлатилиб келинмоқда [5-6]. Бундан ташқари сўнги йилларда радиактив элементларни ўз ичига олган сувларни ионитлар ёрдамида тозалаш ёки радиактив изотопларни ажратиш олишда қўлланилмоқда. Шунини таъкидлаш керакки, стирол ва дивинилбензол сополимерлари асосида олинган ионитлар радиактив чиқинди сувларни тозалашда қўлланилмайди. Чунки, бу ионитлар радиактив нурлар таъсирига барқарор эмас. Шунинг учун агрессив ва радиактив нурлар таъсирларга чидамли янги ионитларни синтез қилиш долзарб муаммолардан бири ҳисобланади [7-9].

Иккиламчи маҳсулотлардан фойдаланиб импорт суперпластификатор ўрнини босувчи маҳсулот чизиқли олигомер полиметиленинг сулфонат натрий олиш шароитлари ва уни бетон аралашмалари мустаҳкамлигига таъсирини ўрганиш. Фазовий тузилишли полиметиленинг сульфокислотани эса сульфокатионит сифатидаги хоссаларини ўрганиш муҳим аҳамиятга эга.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Хом-ашё сифатида целлюлоза саноати иккиламчи маҳсулоти лигнин қўлланилди. Лигнин фракциясини сулфолаш учун лаборатория установаки ва поликондензациялаш учун герметик босим остида ишлайдиган ускунадан фойдаланилди.

Олинган натижаларни тадқиқ қилиш учун физик-кимёвий анализ усуллардан фойдаланилди.

Суперпластификатор қўлланилган бетон аралашмалари мустаҳкамлиги ГОСТ 10180-2012 усули бўйича Гидравлик прес (№МИГ.1000.06 РУ) прибори орқали аниқланди.

Намуналарнинг ИҚ-спекторлари ITRacer-100 спектрометрида 400 - 4000 см⁻¹ оралиқ соҳали олмосли/ZnSe MIRасле 10 призма билан фойдаланиб ўлчанди.

Сканерловчи электрон микроскоп(СЕМ) EVO MA-10 сканерлаш электрон микроскопида (Carl Zeiss, Германия) энергия дисперсияли рентген (EDX) микроанализи (Oxford Instruments, Буюк Британия) учун микроаналитик тизим билан жиҳозланган.

Катионитларнинг термогравиметрик(ТГА) ва дифференциал термик анализи(ДТА) ТГ 209 Ф1 термогравиметрик анализаторида ўрганилди.

Сулфокатионитни синовга тайёрлаш, солиштирма массаси, солиштирма ҳажми, намлиги, СОЕ ва ДОЕ ларини аниқлаш ГОСТ талабларига мувофиқ аниқланди [10-13].

НАТИЖАЛАР ВА МУҲОКАМА

Полиметиленлигнин сульфокислотани синтез қилиш учун дастлабки ҳомашё сифатида целлюлоза саноати иккиламчи маҳсулоти- лигниндан фойдаланилди.

Суперпластификаторни синтезлаш учун дастлаб целлюлоза олиш жараёнида ҳосил бўладиган қора суюқликни 55-75⁰С оралиғида нейтраллаш орқали лигнин ажратиб олинди ва тозаланди.

Олинган лигнин 110-120⁰С да 6 соат концентрланган сульфат кислота ёрдамида сулфирланди, натижада тўқ қора рангли сулфомасса олинди [14].

Сулфомасса босим остида ишлайдиган идишга солиниб дистилланган сув билан суюлтирилди ва 38% ли формалин билан (дастлабки лигнин ва формалдегид мол нисбати 1;1) харорат 110-120⁰С да поликонденсатланди.


Чизиқли тузилишли полиметиленлигнин сульфо кислота олигомери каустик сода ёрдамида кучсиз ишқорий муҳитгача (рН=8) нейтралланди.

Олинган суперпластификаторнинг бетон аралашмаларга таъсирини ўрганиш учун қуйидаги 5 та таркибли бетон қоришма тайёрланди (1-жадвал). 1-қоришма эталон учун, 2-қоришма 0,4% суперпластификатор, 3-қоришма 0,6% суперпластификатор, 4-қоришма 0,8% суперпластификатор, 5-қоришмага 1% суперпластификатор семент миқдорига нисбатан қўшилган ҳолда синалди. Синолда бетон қоришмасининг конус чўкмасини П4 яъни 18 смда ушлаган ҳолда сув сарфини камайтириш ва мустаҳкамлигини ошириш натижалари ўрганилди.

1-Жадвал.

Бетон қоришмаларининг таркиби

№	Семент (гр)	Қум (гр)	Чақиқ тош (гр)	Сув (гр)	СП сементга нисбатан (%)	Конус чўкмаси (см)
1.	2660	8750	3990	1115	-	18
2.	2660	8750	3990	935	0,4	18
3.	2660	8750	3990	845	0,6	18
4.	2660	8750	3990	725	0,8	18
5	2660	8750	3990	669	1	18



1-расм. Бетон қоришмаси учун сарфланган сув миқдори (%)


Эталон учун олинган бетон қоришмасининг конус чўкмаси 18 см пасайиши учун сарфланган сув миқдорига нисбатан 0,4% СП қўшилганда 16,2% га, 0,6% СП қўшилганда 25% га, 0,8% қўшилганда 35% га, 1% қўшилганда 40% гача камайтирди.

Юқорида ўтказилган синовлар натижасида олинган бетон қоришмалари 10x10x10 см ўлчамдаги қолипларга қуйилди. Олинган намуналар 28 кундан сўнг мустақамлиги ГОСТ 10180-2012 усули бўйича Гидравлик прес (№МИГ.1000.06 РУ) прибори орқали аниқланди. (2-жадвал). Намуналарнинг мустақамлиги 2-5-расмларда келтирилган.


2-жадвал

ГОСТ 10180-2012 бўйича 28 кунлик намуналарнинг мустақамлиги


Намуна рақами	Максимал куч, Рмах, кН	Сиқилиш кучи, Рсж, МПа	Сиқилиш модули, Ес, МПа
1(Эталон)	204.466	20.447	328.483
2(СП-0,4%)	249.896	24.990	355.144
3(СП-0,6%)	332.700	33.270	396.561
4(СП-0,8%)	377.022	37.702	376.516
5(СП-1 %)	274.206	27.421	533.264




**2-расм. Эталон учун тайёрланган
10×10×10 см ўлчамли 28 кунлик
намунанинг мустаҳкамлиги**



**3-расм. 0,4% СП қўшилиб
тайёрланган 10×10×10 см ўлчамли
28 кунлик намунанинг
мустаҳкамлиги**



**4-расм. 0,6% СП қўшилиб
тайёрланган 10×10×10 см ўлчамли
28 кунлик намунанинг
мустаҳкамлиги**



**5-расм. 0,8% СП қўшилиб
тайёрланган 10×10×10 см ўлчамли
28 кунлик намунанинг
мустаҳкамлиги**

Олинган натижалар шуни кўрсатадики, пиролиз саноати иккиламчи маҳсулоти асосида олинган суперпластификатор бетон қоришмаларининг 28 кундан кейинг мустаҳкамлигини эталонга нисбатан 0,4% қўшилганда 22,2% га, 0,6% қўшилганда 62,7% га, 0,8% қўшилганда 84,39 % га, 1 % қўшилганда 34,4 % га ошириши аниқланди. Олинган натижалардан хулоса қилиб энг оптимал таркиб сифатида бетон қоришма таркибига 0.8% СП қўшилган ҳолат деб топилди.

Синтез қилинган суперпластификаторнинг ИҚ- спектри олинди ва таҳлил қилинди (6-расм).



6-расм. Чизикли полиметиленигнин сулфонат натрийнинг ИҚ-спектри

Юқоридаги ИҚ-спектрнинг тахлили шуни кўрсатадики, $3428,5 \text{ см}^{-1}$ соҳада $-\text{OH}$ гуруҳининг валент тебраниши, $3069,74 \text{ см}^{-1}$ соҳада ароматик ядрогаги C-H боғининг валент тебраниши, $1117,76 \text{ см}^{-1}$ соҳада $-\text{SO}_3\text{Na}$ гуруҳининг валент тебранишини кўришимиз мумкин.

Сулфокатионитни синтезлаш учун қуйидаги жараёнлар амалга оширилади:


✚ Суперпластификаторни синтезлаш учун дастлаб целлюлоза олиш жараёнида ҳосил бўладиган қора суюқликни $55-75^\circ\text{C}$ оралиғида нейтраллаш орқали лигнин ажратиб олинди ва тозаланди.

✚ Олинган лигнин $110-120^\circ\text{C}$ да 8-10 соат концентранган сулфат кислота ёрдамида (мол нисбат 1:2,5) сулфирланди, натижада тўқ қора рангли сулфомасса олинди.

✚ Сулфомасса босим остида ишлайдиган идишга солиниб, 38% ли формалин билан (дастлабки нафталин ва формалдегид мол нисбати 1;2) ҳарорат $110-120^\circ\text{C}$, босим 20-40АТМ да поликонденсатланди.

✚ Сувда эрмайдиган қаттиқ поликонденсат механик майдаланиб поликонденсацияни охирига етказиш учун 12 соат $90-95^\circ\text{C}$ да қиздирилди.


Олинган маҳсулотлар тузилиши ИҚ-спектроскопия ёрдамида тасдиқланди.



7-расм. Сулфолигниннинг ИҚ-спектри

ИҚ-спектрда $3061,54 \text{ cm}^{-1}$ соҳада ароматик ядрогаги C-H боғининг валент тебраниши, $1106,18 \text{ cm}^{-1}$ соҳада $-\text{SO}_3\text{H}$ гуруҳнинг валент тебраниши кузатилган.


Синтез қилинган сулфокатионитнинг морфологияси ва сирт тузилиши ва элемент таркибини аниқлашда СЕМ (сканерловчи электрон микроскопи) ёрдамида аниқланди.



8-расм. Сулфокатионитнинг сирт тузилиши ва элемент таркиби

Сулфокатионитнинг сирт СЕМ тахлилининг натижалари шуни кўрсатадики, сулфокатионит таркибида мезофовакларнинг мавжудлигини кўриш мумкин. Сулфокатионитнинг элемент тахлили унинг таркибида 69,9% С, 21,2% О ва 10,9% S борлиги аниқланди.

Сулфокатионитнинг термик барқарорлиги термогравиметрик усул билан ўрганилди.








11-расм. Сулфокатионитнинг ТГ - термогравиметрик эгри; ДТА - дифференциал термик эгри чизиғи

Расмда келтирилган маълумотлар уч босқичда вазн йўқотиш билан намуна тузилишининг ўзгаришини кўрсатади, биринчиси 27,01-152,07⁰С, бу диапазонда 22,989 % гача, иккинчи босқич эса 152,07-369,56⁰С, бу ораликда 22,065%, 369,56-900,9⁰С гача эса 22,554% модда массасини йўқотди. Олинган сулфокатионит 900⁰С гача қиздирилганда умумий 67,608% массасини йўқотиши аниқланди. Ўрганилаётган катионитларнинг дифференциал термик эгриси икки эндотермик тепалик ва иккита экзотермик тепалик билан ифодаланади. Биринчи эндотермик таъсир 41,14 -94,52⁰С да содир бўлган бу катионитдан гигроскопик ва кристаллизацион сувнинг йўқолиши билан

изохланади. Иккинчи эндотермик тепалик 600°C дан юқори хароратда пайдо бўлади, бу ионитнинг деструкцияси билан тушинтириш мумкин. Иккита экзотермик тепаликлар $220,79-354,14^{\circ}\text{C}$ ва $388,69-488,93^{\circ}\text{C}$ ларда кузатилиб бу ораликларда катионитдаги фаол фуруҳлар $-\text{OH}$, $-\text{SO}_2\text{OH}$ гуруҳларининг ўзаро поликонденсатланиши натижасида сувнинг ажралиб чиқиши билаб боғлиқ. КУ-2 катионит учун $353-413\text{ K}$ да энергия ютилиши билан эндотермик тепалик кузатилади ва унинг деструкцияси эса 423 K да кузатилади. Шундай қилиб, лигнин асосидаги олинган катионитнинг термал барқарорлиги КУ-2 катионитдан юқори эканлигини кўриш мумкин.

Сулфокатионитнинг қуйидаги эксплуатацион хоссалари ўрганилди:

-  катионитнинг солиштирма массаси
-  катионитнинг солиштирма ҳажми
-  катионитнинг намлиги
-  катионитнинг статик алмашиниш сиғими
-  катионитнинг динамик алмашиниш сиғими

Олинган катионитларни синовга тайёрлаш учун ГОСТ 10896-78 халқаро стандарт бўйича ишлар амалга оширилди. Солиштириш мақсадида КУ-2-8 сулфокатионити олинди (3-жадвал).

3-Жадвал

Синтез қилинган сулфокатионит ва КУ-2-8(импорт) сулфокатионитларнинг эксплуатацион хоссалари

№	Катионит тури	Солиштирма массаси (г/дм ³)	Намлиги (%)	Солиштирма ҳажми (см ³ /г)	Умумий статик алмашиниш сиғими (мг-екв/г)	Динамик алмашиниш сиғими (мол/м ³)
	Ўрганиш усули	ГОСТ 10898.2-74	влагомер ХУ-100MW	ГОСТ 10898.4-84	ГОСТ 20255.1-89	ГОСТ 20255.2-89
1	АСО	650-720	62,5	4,8	4,6	475-490
2	КУ-2-8 (назорат)	750 – 800	48-58	2,8	4,6-4,8	500-520

Жадвалдан кўринадикки, синтез қилинган АСО сулфокатионитларнинг асосий эксплуатацион хоссалари импорт сулфокатионит КУ-2-8 нинг статик ва динамик алмашилиш қобилиятига яқинлигини кўйшимиз мумки.

ХУЛОСА

Целлюлоза саноати иккиламчи махсулоти лигниндан оқилона фойдаланиб полиметиленлигнин сульфокислота ишлаб чиқариш ва бу полимернинг чизикли олигомерини суперпластификатор сифатида бетон аралашмаларида, фазовий полимери сулфокатионит сифатида фойдаланиш мумкинлиги аниқланди.

Эталон учун олинган бетон қоришмасининг конус чўкмаси 18 см пасайиши учун сарфланган сув миқдориغا нисбатан 0,4% СП қўшилганда 16,2% га, 0,6% СП қўшилганда 25% га, 0,8% қўшилганда 35% га, 1% қўшилганда 40% гача камайтириши аниқланди.

Синтез қилинган суперпластификатор бетон қоришмаларининг 28 кундан кейинг мустақамлигини эталонга нисбатан 0,4% қўшилганда 22,2% га, 0,6% қўшилганда 62,7% га, 0,8% қўшилганда 84,39 % га, 1 % қўшилганда 34,4 % га ошириши аниқланди. Олинган натижалардан хулоса қилиб энг оптимал таркиб сифатида бетон қоришма таркибига 0.8% СП қўшилган ҳолат деб топилди.

Катионитларнинг муҳим эксплуатацион хоссаси СОЕ(статик алмашилиш сифими) ва ДОЕ(динамик алмашилиш сифими) аниқланди. $СОЕ = 4,6 \text{ мг-екв/г}$, $ДОЕ = 475-490 \text{ мол/м}^3$.

Полиметиленлигнин сульфокислота таркибидаги функционал гуруҳининг мавжудлиги ИҚ-спектроскопияси ёрдамида исботланган ва сулфокатионит СЕМ ёрдамида морфологияси ўрганилди.

Сулфокатионитнинг термик барқарорлиги термогравиметрик усул билан ўрганилди. Нафталин асосидаги олинган катионитнинг термал барқарорлиги КУ-2 катионитдан юқори эканлиги аниқланди.

Синтез қилинган сулфокатионитларнинг статик ва динамик алмашилиш сифими КУ-2-8 сулфокатионити хоссасига яқинлиги ўрганилди.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Kenjayev A.Q., Nurmanov S.E. (2021) Piroliz moyi asosida byeton aralashmalari uchun supyerplastifikator sintyezi [Superplasticizer syntheses for mixtures of byeton on the basis of pyrolysis oil.]. *O'zbekiston Milliy universiteti xabarlari*. vol. 1, № 3, pp. 297-300.
2. Mardonov A.H., Abdumavlyanova M.K. (2023) Sellyuloza olish jarayoni ikkilamchi mahsuloti asosida sulfolignin sintezi. Research proceedings of international forum, Tashkent,400-401.
3. Mardonov A.H., Abdumavlyanova M.K. (2022) Kanop poyasini pishirishda hosil bo'ladigan qora suyuqligidan ligninni cho'ktirish. «Kimyo, neft-gazni qayta ishlash hamda oziq-ovqat sanoatlarini rivojlanishida innovatsion texnologiyalarni dolzarb muammolari» Respublika ilmiy-texnikaviy anjumani, Tashkent, 46-47.
4. Jurayev M.M., Yuldashyeva C.X. (2020) Fiziko-ximicheskiye svoystva novogo sulfokationita, poluchennogo na osnovye plastikata polivinilxlorida [Physico-chemical properties of a new sulfocationite obtained on the basis of polyvinyl chloride plastic compound]. *O'zbekiston kimyo jurnali*, № 2, pp. 63-72.
5. Zhang B. (2017) et al. Recovery of rhenium from copper leach solutions using ion exchange with weak base resins. *Hydrometallurgy*, pp.50–56.
6. Filatova E.G. (2015) Overview of wastewater treatment technologies from heavy metal ions based on physicochemical processes. *Notes of universities. Applied chemistry and biotechnology*, no. 2, vol. 13, pp. 52-58.
7. Igitov F.B., Turobjonov C.M., Nazirova P.A., Tursunov T.T. (2017) Radiatsionnaya ustoychivost sulfokationita polikondyensatsionnogo tipa [Radiation stability of polycondensation-type sulfonic cation exchanger.]. *Uzbyekskiy ximicheskiy jurnal*, , №3. pp.8-13.
8. Kurt Louis B. Solis, Young - Hwan Kwon, Moon - Hyeon Kim, Ha - Rim An, Yongseok Hong. (2020) Metal organic framework UiO - 66 and activated carbon

composite sorbent for the concurrent adsorption of cationic and anionic metals. *Journal Chemical Communications*, pp. 238. <https://doi.org/10.1016/j.xhemosphere.2019.124656> (In Eng).

9. Kharitonov O.V., Firsova L.A., Milyutin V.V., Kozlitin E.A. (2018) Modern sulfocationites for separation of lanthanides and transplutonium elements partitioning via displacement complexing chromatography. *Journal of Radioanalytical and Nuclear Chemistry*, , vol. 317, pp. 585–592. <https://doi.org/10.1007/s10967-018-5906-10123456789>.

10. GOST 10896-78. Ionites. preparation for the test. Moscow, Standartin form Publ., 1978. 32 p.

11. GOST 10898.4 – 84. Ion-exchange resins. Determination of specific volume. Moscow, Standartin form Publ., 1985. 4 p.

12. GOST 20255.1-89. Ion-exchange resins. Method of determining static ion-exchange capacity. Moscow, Standartin form Publ., 1991. 6 p.

13. GOST 20255.2-89. Ion-exchange resins. Methods of determining dynamic ion-exchange capacity. Moscow, Standartin form Publ., 1991. 10 p.

14. Krivyyenko A.P., Astaxova L.N. *Ryeaktsii elyektrofilnogo zamyeshyeniya v aryenax*[*Electrophilic substitution reactions in arenes*]. Uchyeb. posobiye dlya studentov ximichyeskix spetsialnostyey univversityetov. Saratov, Nauchnaya kniga, 2008. 54 p.

AVTOMOBIL YO‘LLARINING HARAKAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH

Aliqulova Madina Ural qizi,

Yo‘ldoshov Humoyun Olim o‘g‘li

Termiz muhandislik texnologiya instituti talabasi

Ilmiy rahbar: **Odinayev Rustam Qurbonaliyevich**

Yo‘l muhandisligi kafedrasida katta o‘qituvchisi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada avtomobil yo'llarining xavfsizligi darajasini ta'minlash, avtomobil yo'llarining sifat nazariyasini takomillashtirish masalalari o'rganildi va ko'rib chiqildi.*

***Kalit so'zlar:** Yo'l, transport, xavfsizlik, harakat xavfsizligi, avtomobil.*

ENSURING ROAD SAFETY AND IMPROVING QUALITY THEORY

Alikulova Madina

Yo‘ldoshov Humoyun

Termiz Institute of Engineering Technology

Scientific supervisor: **Rustam Gurbanaliyevich Odinaev**

Senior teacher of the Department of Road Engineering

***Abstract:** In this article, ensuring the level of safety of highways, improving the quality theory of highways was studied and considered.*

***Key words:** Road, transport, safety, traffic safety, car.*

Kirish: Keyingi yillarda mamlakatimizda yo‘l harakati xavfsizligi tizimini takomillashtirish borasida keng ko‘lamli tashkiliy-amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, ko‘rilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, halokatli yo‘l-transport hodisalari soni hamon ko‘pligi yo‘l harakati xavfsizligi tizimini tubdan isloh qilish zarurligini ko‘rsatmoqda. Xususan, yo‘l infratuzilmasi xavfsizligini ta‘minlash

quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi: Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida harakat xavfsizligini ta'minlash, texnik holati to'g'risidagi ma'lumotlar asosida istiqboldagi rejalarga o'zgartirishlar kiritish. avtomobil yo'llari va transport harakati; Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida sun'iy inshootlar va harakat xavfsizligi elementlarining texnik holati to'g'risida ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish; Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llaridan foydalanish, avtomobil yo'llarini saqlashda yagona yo'l-texnik siyosatni amalga oshirish; Yo'l-pudrat-ta'mirlash korxonalari, hududiy avtomobil yo'llaridan foydalanish tashkilotlari, xalqaro va davlat avtomobil yo'llarini saqlashga ixtisoslashgan texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash korxonalari, avtomobil yo'llari ilmiy-tadqiqot institutlari, loyiha- tadqiqot tashkilotlari avtomobil yo'llarini joriy ta'mirlash va saqlash bo'yicha yillik, o'rta va uzoq muddatli rejalarni ishlab chiqadilar. bo'limlar bilan birgalikda avtomobil yo'llari; Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari tarmog'ini joriy ta'mirlash va saqlash xarajatlarini hududlar bo'yicha taqsimlashni ko'rib chiqadi va kelishish uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida

Respublika yo'l jamg'armasiga kiritadi. , va kompaniya rahbariyatiga tasdiqlash uchun taqdim etadi; Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash maqsadida Prezidentning "2020-2030-yillarda O'zbekiston Respublikasi avtomobil yo'llarini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori loyihasi e'lon qilindi. iqtisodiyotning barqaror va jadal rivojlanishiga, respublikaning mudofaa qobiliyati va iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlashga, aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiluvchi avtomobil yo'llari tarmog'ini takomillashtirish, ulardan foydalanish xususiyatlarini yaxshilashni belgilaydi. Xususan, yo'l infratuzilmasini harakat xavfsizligini ta'minlashning zamonaviy talablari bilan to'liq muvofiqlashtirish, bu boradagi huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishga qaratilgan samarali tizimni yo'lga qo'yish, shuningdek, inson omilini istisno qiluvchi raqamli texnologiyalarni keng joriy etish talab etiladi. 2022-2025- yillarda O'zbekiston

Respublikasida jamoat xavfsizligi tizimini rivojlantirish strategiyasiga muvofiq, shuningdek, Yangi O'zbekiston sharoitida avtomobil yo'llarida odamlarning hayoti

va sogʻligʻini har qanday noxush hodisalardan kafolatli himoya qilish maqsadida: 1. Quyidagilar mamlakatimizda yoʻl harakati xavfsizligini taʼminlashning dolzarb yoʻnalishlari sifatida belgilansin: “Piyoda – jamoat transporti” ustuvorligidan kelib chiqib, avtomobil yoʻllari infratuzilmasini yaxshilash va sifatini oshirish, yoʻl harakati qatnashchilarining xavfsiz harakatlanishi uchun ishonchli sharoitlar yaratish. – velosiped transporti -avtotransport"; haydovchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimiga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali oʻquv jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, haydovchilarning talablarga rioya qilish madaniyatini oshirish zarur va piyodalarga yoʻl harakati qoidalariga rioya qilish, har qanday qoidabuzarlik uchun jazo muqarrarligini taʼminlash, yoʻl harakati qoidalari asoslarini bolalikdan joriy etish, ushbu amaliyotni maktabgacha taʼlim tashkilotlari va umumtaʼlim maktablarida joriy etish, toʻliqharakatni tashkil etishni raqamlashtirish, amalga oshirish ilgʻor axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etgan holda yangi boshqaruv va nazorat tizimlari. Oʻzbekistonda bir qator avtomobil yoʻllarining oʻtkazuvchanligi oshiriladi.

Loyihada yoʻl harakati xavfsizligini taʼminlash, yoʻl-transport hodisalarining oldini olish, yoʻl harakat qatnashchilari uchun qulay shart-sharoit yaratish va Ichki ishlar vazirligi Davlat yoʻl harakati xavfsizligi xizmatining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish boʻyicha “Yoʻl xaritasi” belgilandi.

Hujjatga koʻra, avtomobil yoʻllarining oʻtkazuvchanligini oshirish, harakat xavfsizligini taʼminlash va yoʻl-transport hodisalarining oldini olish koʻzda tutilgan. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 11-fevral kuni yoʻllarda inson xavfsizligini taʼminlash chora-tadbirlariga bagʻishlangan videoselektor yigʻilishi boʻlib oʻtdi. – Bu masala soʻnggi besh yil ichida biror bir rahbar yoki tashkilot tomonidan jiddiy tahlil qilingan. Bu boradagi qonunlar va ishlar mutlaqo qoniqarsiz. Yoʻl harakati xavfsizligi masalasi nazoratdan chiqib ketdi. Bu esa odamlarning eʼtiroziga sabab boʻlmoqda, – dedi davlatimiz rahbari. Bularning barchasi mamlakatimizda harakat xavfsizligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarga alohida eʼtibor qaratilayotganining yorqin dalilidir.

Adabiyotlar:

1. "Magistral yo'nlarda harakat xavfsizligini ta'minlash"
2. Q.X. Azizov "Yo'nlarda harakat xavfsizligini ta'minlash"

TALABALARNING MA'LUMOTLAR BAZASIDA KOMPETENTLIGINI OSHIRISH

Tursunova Aziza Hoshimovna

Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi TATU Qarshi Filiali o'qituvchisi

E-mail:tursunovaaziza114@mail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada talabalarining fanda bo'lgan qiziqishlarini yondashuvlari asosida oshirish. Ta'lim oluvchilarning ma'lumotlar bazasi faniga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, bilimlarini sinash va mustahkamlash muammolarini aralash turdagi totopshiriqlarni tayyorlash orqali bartaraf etish yo'llari ko'rsatildi.

***Kalit so'zlar:** ta'lim vositalari, kompetensiyaliy yondashuv, aralash topshiriqlar, elektron ta'lim vositalari, Internet tarmog'i, masofaviy platformalar, mobil qurilmalar.*

Talabalar ma'lumotlar bazida kompetentliklarini oshirish uchun quyidagi usullardan foydalanishlari mumkin: Talabalar o'rganish jarayonida o'qishni mustahkamlashlari kerak. Bu, o'qish texnikalarini o'rganish, ma'lumotlarni effektiv ravishda o'qish, ma'lumotlarni tahlil qilish va yozishni rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Talabalar o'zlarining o'zlashtirilgan masalalar ustida tadqiqot qilishni o'rganishlari kerak. Bu, talabalarga tahlil qilish, ma'lumotlarni topish va o'rganish, qator masalalarni yechish va o'z fikrlarini rivojlantirish imkonini beradi. Amaliyotga asoslangan o'rganish talabalarga o'rganishni amaliyotga o'tkazish imkonini beradi. Talabalar loyihalar, amaliy mashqlar va boshqa amaliyotiy vazifalar orqali o'rganishni mustahkamlashlari kerak. Bu ularga ma'lumotlarni amaliyotda qo'llash va o'rganishning amaliy asoslari bilan tanishish imkonini beradi. Hamkorlik va guruh

ishi: Talabalar va guruhlarda ishlash, hamkorlik va guruhda ko'rsatiladigan vazifalarni bajarish yo'llarini o'rganish uchun zarurdir. Guruhlar o'rganish jarayonida o'z fikrlarini almashish, masalalarga jamoaviy yechim topish va joriy amaliyotni o'rganish imkonini beradi. Mentorlik va ko'p to'lovli resurslardan foydalanish: Talabalar ma'lumotlar bazasida kompetentliklarini oshirish uchun mentorlarning yordami va ko'p to'lovli o'quv resurslaridan foydalanishlari mumkin. Mentorlar talabalarga yo'nalish berish, maslahat berish va ularga o'rganish jarayonida qo'llanma berishda yordam berishadi. Ko'p to'lovli resurslar esa kurslar, seminarlar, o'quv videolar, onlayn ma'ruzalar va boshqa o'quv materiallari bo'lishi mumkin.



1-rasm. Ma'lumotlar bazasi haqida.

Mustaqil o'rganish: Talabalarning mustaqil o'rganish jarayonida o'z fikrlarini o'rganish, o'zlashtirish va rivojlantirishga e'tibor berishlari kerak. O'zlashtirilgan materiallar yaratish, o'rgangan ma'lumotlarni qisqa maqolalarga yozish, blog yozish yoki o'z fikrlarini ijtimoiy tarmoqlarda ulashish orqali o'zlashtirishni mustahkamlash imkonini beradi. Dasturchilik va texnologiyalardan foydalanish: Talabalar ma'lumotlar bazasida kompetentliklarini oshirish uchun dasturlash va texnologiyalardan foydalanishlari zarurdir. Dasturchilik va texnologiyalar o'rganishga imkon beradi, ma'lumotlarni tahlil qilish, ma'lumotlarni vizualizatsiyalash, ma'lumotlar bazalarini ishlatish va boshqa ma'lumotlar bilan ishlashni o'rganish imkonini beradi.

Xulosa, Muhokama qilish va hamkorlik qilish maqsadida boshqa insonlar bilan muloqot qilishning ahamiyatini tushunishingiz kerak. Talabarning ma'lumotlar bazisida kompetentligini oshirishda mentorlarning yordami, ko'p o'quvchilar bilan hamkorlik qilish, onlayn forumlarga qo'shilish va o'z fikrlaringizni boshqalarga ulashish kerakli bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. J.D.Saidov. Study of the process of database and creation in higher education. Guliston. 2021. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/5R96C>.

2. Jasur Doniyor O'G'Li Saidov, Saydullo Payzievich Allayorov, Said Xalilovich Islikov MA'LUMOTLAR OMBORINI YARATISH BO'YICHA KASBIY KOMPETENTLIGINI BAHOLASH MEZONLARI // Scientific progress. 2021. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ma-lumotlar-omborini-yaratish-bo-yicha-kasbiy-kompetentligini-baholash-mezonlari> (дата обращения: 02.06.2022).

3. Toshtemirov D. E., Saidov J. D., Mamatqulov S. X. TECHNOLOGY OF CREATING MODERN ELECTRONIC EDUCATIONAL RESOURCES //Bulletin of Gulistan State University. - 2019. - T. 2019. - №. 1. - С. 67-71. Toshtemirov D.,

4. Muminov B., Saidov J. Fundamentals of compilation of electronic tasks for students to test and strengthen their knowledge of database //International Journal of Scientific and Technology Research. - 2020. - T. 9. - №. 4. - С. 32263228.

5. TURSUNOVA A.H (2023). TA'LIM JARAYONIDA INTELLEKTUAL-KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNYI XUSUSIYATLARI. OLIM ,1(6), 18–21.

6. TURSUNOVA A.H THE ADVANTAGES AND FEATURES OF TEACHING AND LEARNING ONLINE IN THE EDUCATION PROCESS <https://cyberleninka.ru/article/n/the-advantages-and-features-of-teaching-and-learning-online-in-the-education-process>

TABLE OF CONTENTS

Sr. No.	Paper/ Author
1	Abduraimova, M. A. (2023). METHODOLOGY OF CONDUCTING AUDITS OF INSURANCE ORGANIZATIONS. SCHOLAR, 1(30), 4–12. https://doi.org/10.5281/zenodo.10106451
2	Aliyev, D. (2023). THE IMPORTANCE OF INTERNET OF THINGS IN IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF LANGUAGE LEARNING. SCHOLAR, 1(30), 13–15. https://doi.org/10.5281/zenodo.10106500
3	Mamanazarov, U. (2023). THE CONTENT OF THE CONCEPT OF MORAL SELF-AWARENESS. SCHOLAR, 1(30), 16–20. https://doi.org/10.5281/zenodo.10106536
4	Салохиддинов, Ф. А., & Тошқобилов, Ж. Ш. угли . (2023). ПОЛУЧЕНИЕ И ПРИМЕНЕНИЕ АРОМАТИЧЕСКИХ УГЛЕВОДОРОДОВ. SCHOLAR, 1(30), 21–26. https://doi.org/10.5281/zenodo.10106594
5	Saidova, F. S., & Abduvayitov, S. O. o'g'li . (2023). TURLI KASALLIKLAR RIVOJLANISHIGA TO'LA VAZNLILIKNING TA'SIRI. SCHOLAR, 1(30), 27–30. https://doi.org/10.5281/zenodo.10106646
6	Ahmadova, A. B. qizi . (2023). BOBUR LIRIKASIDA DAVR RUHIYATI. SCHOLAR, 1(30), 31–35. https://doi.org/10.5281/zenodo.10106830
7	Akmalov, H. (2023). UZBEKISTAN-GERMANY: PECULIARITIES OF JUVENILE LIABILITY AND THE SYSTEM OF PUNISHMENT. SCHOLAR, 1(30), 36–45. https://doi.org/10.5281/zenodo.10106964
8	Жўраев, А. А. ўғли . (2023). ДЕҲҚОНЧИЛИК БИЛАН БОҒЛИҚ УРФ-ОДАТЛАРДА ҚАДИМИЙ ДИНИЙ ЭЪТИҚОДЛАР ИЗЛАРИ. SCHOLAR, 1(30), 46–58. https://doi.org/10.5281/zenodo.10107106

9

Dadamirzayev, S. U. o'g'li ., Akhmadjanova, M. A. qizi ., & Sharifboyeva, F. O. qizi . (2023). COMPREHENSIVE MARKETING STRATEGY FOR ADVANCING FOOD PRODUCTION. SCHOLAR, 1(30), 59–64.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10107215>

10

Муйдинжонова, Г. Т. (2023). МЕТОДИКА И ПРАКТИКА ПАТРИОТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЁЖИ. SCHOLAR, 1(30), 65–69. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10107372>

11

Рахмонов, О. С. о'g'li ., Musojonov, X. M. о'g'li ., & Abdullayev, A. R. о'g'li . (2023). SECURITY PROTOCOLS, SAFEGUARDING THE DIGITAL FRONTIER. SCHOLAR, 1(30), 70–74. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10107378>

12

Tursunov, F. M. (2023). TIJORAT BANKLARIDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH AHAMIYATI. SCHOLAR, 1(30), 75–81.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10107440>

13

Kardzhavova, G. A., & Urunova, M. A. (2023). COMPLEX TREATMENT COMMUNITY-ACQUIRED PNEUMONIA IN CHILDREN WITH MYOCARDITIS: EXPERIENCE WITH LEVOCARNITINE. SCHOLAR, 1(30), 82–86. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10107514>

14

Nizomitdinov, D. (2023). GERMANIYALIK SHARQSHUNOS RALF KAUZNING MING VA TEMURIYLAR O'RTASIDAGI SIYOSAT VA SAVDO. O'RTA ASRLARNING OXIRLARIDA XITOIY, ERON VA MARKAZIY OSIYO ASARI HAQIDA. SCHOLAR, 1(30), 87–91.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10107571>

15

Sharipova, N. D. (2023). NECESSITY OF CORPORATE GOVERNANCE IN COMMERCIAL BANKS. SCHOLAR, 1(30), 92–99.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10107868>

16

Норматова, Д. Т. (2023). МАЪЛУМОТ ВА НУТҚ ХАБАРЛАРИНИ УЗАТИШНИНГ ЭХТИМОЛЛИК ХАРАКТЕРИСТИКАЛАРИНИ ТАХЛИЛИ. SCHOLAR, 1(30), 100–109.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10107878>

17

Xoliqulov, H. J. o'g'li ., Pardayev, U. X. o'g'li ., & Tilyabov, M. U. (2023). MAKTAB LABORATORIYALARIDA HAYDASH USULI YORDAMIDA AZEATROP BO'LMAGAN ARALASHMALARNI AJRATISH. HAYDASH ASBOB –USUKUNALARI BILAN ISHLASHDA O'ZIGA XOS IMKONIYATLARDAN FOYDALANISH. SCHOLAR, 1(30), 110–116. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10107970>

18

Kanjayev, S. N. (2023). ILG'OR TEXNOLOGIYALAR MOHIYATI VA IQTISODIYOTDAGI AHAMIYATI. SCHOLAR, 1(30), 117–124. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10108041>

19

Miragzamova, G. M. (2023). THE ROLE OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING THE FUNDAMENTALS OF NURSING. SCHOLAR, 1(30), 125–130. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10108087>

20

Umarova, B. R., & Xaitboyeva, N. A. (2023). THE ROLE OF THE TEACHER IN THE FORMATION OF PROFESSIONAL CHARACTERISTICS OF THE STUDENTS OF THE MEDICAL VOCATIONAL TECHNICAL COLLEGE. SCHOLAR, 1(30), 131–136. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10108151>

21

Xolliyeva, A. T. qizi ., & Sattorova, M. A. qizi . (2023). TALABALARDA STRESSLI VAZIYATLARGA NISBATAN KOPING XULQ-ATVOR STRATEGIYALARI NAMOYON BO'LISHINING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. SCHOLAR, 1(30), 137–141. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10108169>

22

To'rayeva, N. B. qizi . (2023). PROYEKTIV METODLARNI QO'LLASH AHAMIYATI. SCHOLAR, 1(30), 142–145. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10108189>

23

Qurbonova, S. A. (2023). JADIDLARNING INNOVATSION TA'LIMGA OID QARASHLARI. SCHOLAR, 1(30), 146–153. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10108217>

24

Абдумавлянова, М. К., & Мардонов, А. Х. (2023). ЦЕЛЛЮЛОЗА САНОАТИ ИККИЛАМЧИ МАҲСУЛОТЛАРИДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ. SCHOLAR, 1(30), 154–167.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10108221>

25

Aliqulova, M. U. qizi ., Yo'ldoshov, H. O. o'g'li ., & Odinayev, R. Q. (2023). АВТОМОБИЛ YO'LLARINING HАRАKАT ХАVFSIZLIGINI TА'MINLASH. SCHOLAR, 1(30), 168–171. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10108229>

26

Tursunova, A. H. (2023). TALABALARNING MA'LUMOTLAR BAZASIDA KOMPETENTLIGINI OSHIRISH. SCHOLAR, 1(30), 172–174.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10108243>